
### **MySQL misolida ma`lumotlar bazasi bilan bog`lanish.**

#### **Ma`lumotlarni qo`shish va qayta ishlash.**

SQL va u haqida qisqacha kirish. Ma`lumotlar bazasi serveriga bog`lanish. Ma`lumotlar bazasini tanlash. Xatoliklarni qayta ishlash. Jadvalga ma`lumot qo`shish.Avtomatik o`zgaradigan maydonidan qiymatni olish. Ma`lumotga murojaat qilish. So`rovda topilgan yozuvlar sonini aniqlash. So`rov natijasi. Ma`lumotlarni o`zgartirish.

Qo'llaniladigan ta`lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta`lim. Pog'ona, qadamba-qadam metodi, Venn diagrammasi, T-sxemasi,o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar: A4;A5; A6; A7; A8; A9; A6; Q1; Q2; Q3; Q11; Q12; Q13; Q14

## **Dinamik tasvirlar bilan ishlash. Geometrik shakllarni hosil qilish. Ranglar bilan ishlash.**

Dinamik tasvirlar bilan ishlash. Tasvirlarni yaratish va ularni brauzerga chiqarish. Ranglar bilan ishlash. CHiziqlarni chizish. Berilgan maydonni rangga bo`yash.YOy chizish. To`g`ri to`rtburchaklarni chizish.

Ko`pburchaklarni chizish. Beriladigan ranglarni shaffoflashtirish. Matnlar bilan ishlash. ImageTTText() funksiyasi yordamida qatorlarni yaratish. ImageTTFbox() funksiyasi yordamida matn o`lchamini tekshirish. Matn bilan ishlovchi hamma fnuksilarga oid dasturlarni jamlaymiz.

Qo'llaniladigan ta`lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta`lim. Pog'ona, qadamba-qadam metodi, Venn diagrammasi, T-sxemasi, o'z-o'zini nazorat.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3.

## **Dasturda yuz beruvchi xatoliklar. Xatoliklarni baholash.**

Dasturni tekshirish. YAratilgan dasturni va RNR konfigurasiyasi haqida ma`lumot. Phpinfo() funksiyasi. Dasturlarni sozlashda ranglar bilan ajratish. PHP tilida hatoliklar haqida ma`lumot berish. Hatolik haqidagi ma`lumotlarni faylga yozish.

Qo'llaniladigan ta`lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta`lim. "baliq skeleti", B.B.B jadvali, kichik guruhlarda ishlash metodlari.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; A5; A6; Q1; Q2; Q3.

## **"PHPda dasturlash" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotining kalendar tematik rejasi**

<b>№</b>	<b>Amaliy mavzulari</b>	<b>Ajr. soat</b>
1.	Web server va uni o'ratish. Birinchi dastur. PHP-komanda blokining berilishi.	2
2.	Echo, print() funksiyalari. HTML va PHPning bиргаликда ishlatilishi. PHP-dasturida komentariyalar (izohlar).	2
3.	Dinamik o'zgaruvchilar. Ma'lumotlar va ularning tiplari. O'zgaruvchi tipini o'zgartirish. Operatorlar va ifodalar. O'zlashtirishning qo'shimcha operatorlari. Solishtirish operatorlari. O'zgarmaslar	2
4.	IF operatoridan foydalanish. IF instruksiyasining else bloki. IF instruksiyasining elseif blokidan foydalanish. Switch instruksiyasi. ? operatori.	2
5.	Sikllar. While stikli.Do..while stikli. For stikli. Stikllardagi uzilishlarni tashkil etuvchi break instruksiyasi. Continue instruksiyasi yordamida iterastiyani davom ettirish. Ichma-ich stikllarni tashkil etish.	2
6.	Qator formatini berish. Printf() funkstiyasi bilan ishlash. printf() va tiplarni aniqlash. Qator formatini berish. Chiqadigan qiymat uchun maydon kengligini berish. Haqiqiy sonlarni aniqligini berish.	2
7.	Funkstiyalarga murojaat. Funkstiyalarni yaratish. Qiymat qaytaruvchi funkstiyalar yaratish. Funkstiyalarga dinamik murojaat qilish. Global instruksiyasi yordamida o'zgaruvchiga murojaat qilish. Funkstiyaga murojaat qilishda uning holatini saqlab qolish. Argumentlarning aktiv holdagi qiymati. Murojaat bo'yicha argumentlarni jo'natish.	2
8.	Massivlarni yaratish. array() funkstiyasi yordamida massivni aniqlash. Identifikator yordamida massiv elementlarini yaratish. Strukturali	2

	(assostiirovanniy) massiv. array() funkstiyai yordamida strukturali massivni. Ko'p o'lchovli massivlar.	
9.	Ob'ektlarni yaratish. Ob'ekt xususiyatlari. Ob'ekt metodlari. Sinf xususiyati. Konstruktor. AddRow() metodi. AddRowAssocArray() metodi. Output() metodi. Avlod qoldirish. Avlod qoldiruvchi sinf metodini aniqlashtirish. Avlod qoldiruvchi sinf metodini chakirish.	4
10.	Formalar bilan ishlash. Global o'zgaruvchilar va klient-server o'zgaruvchilar. Foydalanuvchi kiritgan ma'lumotlarni qayta ishlash uchun dastur. Ko'p qiymatli elementlarni qayta ishlash. Strukturali massiv orqali formaning barcha maydonlariga murojaat qilish.	2
11.	Fayllarni hujjatga bog'lash. Fayl mavjudligi tekshirish. Fayl yoki katalog ekanligini aniqlash. Fayl statusini tekshirish. Fayl xajmini aniqlash. Vaqt va sana xaqida ma'lumot olish. Fayllarni yaratish va o'chirish. Fayllarni o'qish, yozish yoki qo'shish uchun ochish.	2
12.	DBM – ma'lumotlar bazasini ochish. Bazaga ma'umotlarni qo'shish. Bazadagi ma'lumotlarni o'zgartirish.	2
13.	Bazadan ma'lumotlarni o'qish. Ma'lumotlar bazasidagi element mavjudlini tekshirish.	2
14.	Xatoliklarni qayta ishlash. Jadvalga ma'lumot qo'shish. Avtomatik o'zgaradigan maydondan qiymatni olish.	2
15.	Ma'lumotga murojaat qilish. So'rovda topilgan yozuvlar sonini aniqlash. Ma'lumotlarni o'zgartirish.	2
16.	Tasvirlarni yaratish va ularni brauzerga chiqarish. Ranglar bilan ishlash. Chiziqlarni chizish.	2
17.	Berilgan maydonni rangga bo'yash. Yoy chizish. To'g'ri to'rtburchaklarni chizish.	2
18.	Phpinfo() funkstiyasi. Dasturlarni sozlashda ranglar bilan ajratish.	2
19.	PHP tilida hatoliklar haqida ma'lumot berish. Hatolik haqidagi ma'lumotlarni faylga yozish.	2
<b>Jami:</b>		<b>38</b>

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko`rsatma va tavsiyalar ishlab chikiladi. Unda talabalar asosiy ma`ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko`nikmalarini amalda kompyuterda bajarib mustahkamlaydilar. SHuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni CHop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

### Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakklardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rghanish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo`limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rghanish;

- talabaning o`quv-ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarish bilan bog`liq bo`lgan fanlar bo`limlari va mavzularni chuqur o`rganish;
- faol va muammoli o`qitish uslubidan foydalilaniladigan o`quv mashg`ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta`lim.

Bakalavr talabalarining fanni chuqur o`zlashtirishlari, fan bo`yicha zamonaviy ma`lumotlarni izlab o`rganishlari va mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari uchun mustaqil ish soatlarini unumli tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Mustaqil ishlarni bajarish uchun manbaa sifatida adabiyotlarning yangi avlodlari, darsliklar, o`quv qo`llanmalar, metodik qo`llanmalar, Internet tarmog`idagi tegishli ma`lumotlar, berilgan mavzu bo`yicha avval bajarilgan ishlar haqidagi ma`lumotlar va boshqalar hizmat qiladi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Web sahifalarni yaratish uchun dasturiy vositalar: MS FrontPage, MS Word, Macromedia Flash MX, Dreamweaver, Fireworks
2. Ranglar bilan ishlash. Freymlar tashkil qilish. Ro`yxatlar tashkil qilish.
3. Harakatlanuvchi satrlar. Ob`ektlar. Hujjatga rasmlar va videotasvirlar o`rnatish.
4. Giperishoratlar. Ichki ishoratlar. Boshqa hujjatlarga ishoratlar.
5. Grafik ishoratlar. Tasvir xaritasi. BookMark tashkil qilish. Interaktiv formalar.
6. PHP-dasturida komentariyalar (izohlar). Dinamik o`zgaruvchilar. Ma`lumotlar va ularning tiplari. O`zgaruvchi tipini o`zgartirish. Operatorlar va ifodalar. O`zlashtirishning qo`shimcha operatorlari. Solishtirish operatorlari. O`zgarmaslar
7. Funksiyaga murojaat qilishda uning holatini saqlab qolish. Argumentlarning aktiv holdagi qiymati. Murojaat bo`yicha argumentlarni jo`natish
8. Identifikator yordamida massiv elementlarini yaratish. Strukturali (assosirovanno`y) massiv. array() funksiyai yordamida strukturali massivni. Ko`p o`lchovli massivlar.
9. Konstruktor. AddRow () metodi. AddRowAssocArray () metodi. Output() metodi. Avlod qoldirish. Avlod qoldiruvchi sinf metodini aniqlashtirish. Avlod qoldiruvchi sinf metodini chakirish.
10. Strukturali massiv orqali formaning barcha maydonlariga murojaat qilish. Uzatish usulini aniqlash. HTML matni va PHP-dasturlarini bir sahifaga joylashtirish.
11. Fayl xajmini aniqlash. Vakt va sana xakida ma`lumot olish. Fayllarni yaratish va o`chirish. Fayllarni o`qish, yozish yoki qo`shish uchun ochish.
12. Ma`lumotga murojaat qilish. So`rovda topilgan yozuvlar sonini aniqlash. Ma`lumotlarni o`zgartirish.

### **Dasturning informasion-uslubiy ta`minoti**

Mazkur fanni o`qitish jarayonida ta`limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalari qo`llanilishi nazarda tutilgan.

– elektron web sahifalarni yaratish tillari, zamonaviy dasturlash bo`yicha ma`ruza va amaliy darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezентasion va elektron-didaktik texnologiyalaridan;

– mavjud dasturiy vositalarning imkoniyatlarini o`rganish va ular yordamida elektron sahifalarni yaratish mavzularida o`tkaziladigan amaliy mashg`ulotlarda aqliy xujum, guruxli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo`llash nazarda tutiladi.

### **“PHPda dasturlash” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni**

Talabalarning bilimini nazorat qilish to`g`risidagi ushbu mezon O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim Vazirligining 2010 yil 27 avgustdaggi № 217-

sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini baholashning reyting tizimi to'g'risida»gi muvaqqat Nizom asosida ishlab chiqildi.

Unga ko'ra talabaning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB);
- oraliq baholash (OB);
- yakuniy baholash (YAB);

Fan bo'yicha talabaning semestr davomidagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda baholanadi va u quyidagicha taqsimlanadi.

- ♦ umumiy ball - 100 ball;
- ♦ saralash ball - 55 ball;
- ♦ joriy baholash (JB) -40 ball;
- ♦ oraliq baholash (OB)- 30 ball;
- ♦ yakuniy baholash (YAB)- 30 ball.

Talabalarning ballarda ifodalangan o'zlashtirishi quyidagicha baholanadi:

- 86-100 ball-«a'lo»;
- 71-85 ball-«yaxshi»;
- 55-70 ball-«qoniqarli»;
- 0-54 ball- «qoniqarsiz»

«Kompyuter grafikasi va dizayn» fanidan reyting nazorati quyidagi tartibda o'tkaziladi:

#### 1. JB (joriy baholash)

Joriy baholash (JB) uchun jami 40 ball ajratiladi. JB semestr davomida uch marta o'tkaziladi. JB jadvali fakultet dekanati o'rnatgan reja asosida belgilanadi va talabalar to`plagan ballar qaydnomaga kiritiladi.

Har bir JB ni amalga oshirishda va talabalar bilimini baholashda quyidagi mezonga amal qilinadi:

1. Talabalarning fan bo'yicha tajriba mashg`ulotlarida qatnashish faoliyati va o`tilgan mavzular bo'yicha tajriba ishlarini o`z vaqtida bajarishi va tajriba ishi hisobotini muvaffaqiyatli himoya qilishi (max bal= 0,5\*max JB bali);
2. Talabalarning amaliy mashg`ulotlardagi faolligi, o`tilgan mavzularni va mustaqil ish mavzularini o'zlashtirish darajasi (Dars jarayonida interfaol usullardan foydalanib talabalarning darsdagи faolligi baholanadi) (max bal=0,3\*max JB bali);
3. Talabalarning o`tilgan mavzular bo'yicha chet el adabiyotlari va INTERNET tizimidan qo'shimcha ma'lumotlar olib, ularni tahlil qilishi va o'zlashtirish darajasi (max bal=0,2\*max JB bali).

Shunday qilib, JB talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirish ko`rsatkichlarini aniqlashda juda muhim o'rin tutadi. Chunki nazariy bilimlarni amalda mustaqil sinab ko`rish talabaning fanni o'zlashtirish sifatini keskin oshiradi. Shuning uchun JBni amalga oshirishda fan o`qituvchisidan katta mas`uliyat talab qilinadi.

OB da fanning bir necha mavzularini qamrab olgan bo`limi yoki qismi bo'yicha nazariy mashg`ulotlar o`tib bo`lingandan so`ng, talabaning nazariy bilimlari baholanadi. OBlar soni kunduzgi ta`limda uchtani tashkil etadi.

OBda talabaning muayyan nazariy va amaliy savolga javob berish yoki muammoni yechish mahorati va qobiliyati aniqlanib baholanadi.

Fan bo'yicha OB test va yozma ishi shakllarida amalga oshiriladi (Kafedra majlisi qaroriga ko'ra).

Har bir OB ni quyidagi mezon asosida o'tkaziladi:

1. Test natijalari (max ball= max OB\*0,4);

2. Berilgan masalani hal qilish mahorati  
(max ball= max OB\*0,4);
3. Mustaqil ish topshiriqlarini zamonaviy manbaalarga asoslanib hal qilish darajasi  
(max ball= max OB\*0,2).

OB turini o`zlashtira olmagan talabaga qayta o`zlashtirish uchun dekanat rejasi asosida ruxsat beriladi.

OB ga ajratilgan umumiyl balldan saralash bali (max OB balini 55%) ni to`plagan talabaga YAB da ishtirok etish xuquqi beriladi.

YABda talabaning fan bo`yicha bilim, ko`nikma va malakalari fanning umumiyl mazmuni doirasida baholanadi. YAB semestr yakunida o`tkaziladi.

Fan bo`yicha talabaning semestr davomidagi o`zlashtirish ko`rsatkichi 100 ballik tizimda quyidagi jadval asosida baholanadi:

Multimedia tizimlari va texnologiyalari fani buyicha talabalar bilimini nazorat qilish va baholash mezonlari tartibi

(OO`MTB ning 2010 yil 29-avgustdaggi 333-sonli OTM larida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to`g`risidagi Nizomga o`zgartirishlar va qushimchalar kiritish haqidagi buyrug`i asosida ishlab chiqildi).

T/R	Mashg`ulot turi	Baholash shakllari va ballari (100 ball)						
		Joriy baholash – 40 ball			Oraliq baholash – 30 ball			Yakuniy 30 ball
		20 I-JN	20 II-JN	40 Jami	15 I-ON	15 II-ON	30 Jami	
1	Ma`ruza	-	-	-	10 ball	10 ball	20 ball	30 ball (yo`zma)
2	Amaliy mashg`uloti	5 ball	5 ball	10	-	-	-	-
3	Tajriba mashg`uloti	10 ball	10 ball	20	-	-	-	-
4	Mustaqil ta`lim	5 ball	5 ball	10	5 ball	5 ball	10	
	Hammasi			40			30	30

Fan bo`yicha yakuniy baholash uchun JB ga ajratilgan umumiyl ball va OB ga ajratilgan umumiyl baldan saralash balini to`plagan talabalarga ruxsat etiladi. Semestr yakunida fan bo`yicha saralsh bali (55 ball) dan kam bal to`plagan talabaning o`zlashtirishi qoniqarsiz (akademik qarzdor) hisoblanadi.

### Tavsiya etilgan adabiyotlar ro`yhati

#### Asosiy adabiyotlar

1. A.R.Maraximov, S. I. Raxmonqulova «Internet va undan foydalanish asoslari». Toshkent-2001. O`quv qo`llanma.
2. Vazirlar Mahkamasining kompyuterlashtirishni va AKT larni rivojlantirishning 2002-2010 yillarga mo`ljallangan davlat dasturi.
3. Стивен Хольцнер PHP в примерах. Учебный курс. Москва, БИНОМ, 2007
4. “Учебники и справочный материал по веб-технологиям”. Электронный учебник.
5. Лешев Д. Создание интерактивного web-сайта: Учебный курс. "Питер", 2003.
6. Энди Гутманс. PHP5 профессиональное программирование. Учебный курс. С.Петербург-Москва. 2006

7. Д. Кирсанов. Веб-дизайн. -СПб: Символ-Плюс,2001.
8. Matt Doyle. “Beginning PHP 5.3”. 2011 by Wiley Publishing, Inc., Indianapolis, Indiana

### **Qo`shimcha adabiyotlar:**

1. M.Aripov. Informatika, Universitet nashriyoti, 2001.
2. Д. Миронов. Corel DRAW, Учебный курс-СПб.: Питер, 2000.
3. И.Шапошников. Web - сайт своими руками. СПб.:БХВ-Петербург, 2000.
4. Т.Конверс. PHP5 и MYSQL библия пользователя. Справочник. Москва, 2006
5. О. Э. Колесников. Интернет для делового человека. М.,МЦФ. Издат. Фирма «Язуа», 1996.
6. M.Aripov. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari bo`yicha inglizcha qisqartmalarining inglizcha-ruscha-o`zbekcha lug`ati. Universitet nashriyoti, 2001.
7. Гаевский А.Ю., Романовский В.А. Самоучитель по созданию Web-страниц
8. Xolmatov T. Inforamatika, Uz Mil ensk-yasi, 2003, Darslik.
9. Kucharov A. Internet, Toshkent, 2001, O`quv qo`llanma
10. Jurnal «Informatika i obrazovanie», 2002-2003 g.
11. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
12. <http://www.netcraft.com>
13. [www.km.ru](http://www.km.ru)
14. vlibrary.freenet.uz
15. [www.intuit.ru](http://www.intuit.ru)
16. [bankreferatov.ru](http://bankreferatov.ru)

### 3. Ta`lim texnologiyasi

#### 1-nazariy mashg`ulot

Mavzu	<b>PHP: shaxsiy saxifalardan tarmoqqacha.</b>
Vaqt	2 soat
O`quv mashgulotining shakli	Multimediali ma`ruza
O`quv mashg`ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. PHP nima? , PHP dasturlash tili.</li> <li>2. PHP ni SHEXMga o`rnatish, Sistemalar, serverlar va ma`lumotlar bazalari.</li> <li>3. PHP ni kaerdan olish mumkin. PHP.ini fayli.</li> <li>4. YOrdamchi kaerdan kidirish lozim. Birinchi dastur.</li> </ol>
O`quv mashg`ulotining maqsadi:	Web dasturlash va Web texnologiyalar haqidagi dastlabki tushuncha bilimlarni talabalarga tushuntirish.
Pedagogik vazifalar:	O`quv faoliyatining natijalari: Bililadi: <ul style="list-style-type: none"> <li>- Web texnologiyalarning umumiyligi tarkibini,</li> <li>- "klient-server" texnologiyasini,</li> </ul>
1) Web texnologiyalarning umumiyligi tarkibiy qismi haqida ma`lumot berish. 2) PHP, HTML, XML, XHTML, WML razmetkali tillarini tushuntiribberish. 3) Senariyli tillar.	
O`qitish uslubi	Suxbat, muammoli savollar.
O`qitish vositalari	SHK, multimediali videoproektor, mavzu bo`yicha taqdimot
O`qitish shart-sharoitlari	O`quv auditoriya
Monitoring va baxolash usullari	

Ilova 1-mavzu:

Search

Select a file:

Browse

.png, .gif, .jpg, .jpeg, .bmp MORE

Convert to PDF

enhanced by

Select a file:

Browse


.png, .gif, .jpg, .jpeg, .bmp MORE

Convert to DOC

Thesaurus

Dictionary

Reference



The screenshot shows the "Настройки" (Settings) page of Google Chrome. The left sidebar has links: История, Расширения, Настройки (selected), and О программе. The main content area is titled "Настройки".

**Вход**  
Войдите в аккаунт, чтобы синхронизировать закладки, историю, пароли и другие настройки на всех устройствах. Одновременно будет выполнена авторизация в сервисах Google. [Подробнее...](#)

**При запуске открывать**

Новую вкладку

Этот параметр управляется расширением FromDocToPDF.

Отключить расширение

Ранее открытые вкладки

Заданные страницы [Добавить](#)

**Внешний вид**

Выбрать тему  Восстановить тему по умолчанию

Показывать кнопку "Главная страница"

Всегда показывать панель закладок

**Поиск**


Выберите [поисковую систему по умолчанию](#).

Google  Настроить поисковые системы...

## 2-nazariy mashg`ulot

Mavzu	<b>O`zgaruvchilar. Ma`lumot tipi. Operator va ifodalar.</b>
Vaqt	2 soat
O`quv mashg`ulotining shakli	Multimediali ma`ruza
O`quv mashg`ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O`zgaruvchilar. Dinamik o`zgaruvchilar.</li> <li>2. Ma`lumotlar va ularning tiplari.</li> <li>3. O`zgaruvchi tipini o`zgartirish. Operatorlar va ifodalar.</li> <li>4. O`zlashtirishning qo`shimcha operatorlari. Solishtirish operatorlari. O`zgarmaslar</li> <li>5. Hujjatning BODY bo`limi</li> </ol>
O`quv mashg`ulotining maqsadi:	HTML gipermatnli tilining asosiy xususiyatlari haqida bilimlarni hosil qilish.
Pedagogik vazifalar:	O`quv faoliyatining natijalari: Biladi:
1.Gipermatnli tilining xususiyati. 2.HTML tili va uning tarkibiy qismlarini ochib berish. 3. HEAD va BODY	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Gipermatnli til,</li> <li>- PHP tili tarkibi,</li> <li>- HEAD va BODY bo`limlari.</li> </ul>
O`qitish uslubi	Guruxlar bilan ishllash.
O`qitish vositalari	SHK, multimediali videoproektor, mavzu bo`yicha taqdimot, tarqatma materiallar.
O`qitish shart-sharoitlari	O`quv auditoriva

Ilova 2-mavzu:



### 3-nazariy mashg`ulot

Mavzu	<b>SHartlar (if, elseif). sikllar (while, for).</b>
Vaqt	2 soat
O`quv mashg`ulotining shakli	Multimediali ma`ruza
O`quv mashg`ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. PHP4 da shartli jarayonilarni ifodalash.</li> <li>2. IF operatoridan foydalanish. IF instruksiyasining else bloki. IF instruksiyasining elseif blokidan foydalanish.</li> <li>3. Switch instruksiyasi. ? operatori. sikllar.</li> <li>4. While sikli.Do..while sikli. For sikli. sikllardagi uzilishlarni tashkil etuvchi break instruksiyasi.</li> <li>5. Continue instruksiyasi yordamida iterasiyani davom ettirish. Ichma-ich sikllarni tashkil etish.</li> </ol>
O`quv mashg`ulotining maqsadi: HTML asosiy teglari va ularning tuzilishini ochib berish.	
Pedagogik vazifalar:	<p>O`quv faoliyatining natijalari: Biladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-Mantiqiy va fizik formatlash, HEAD bo`limi xususiyat va vazifalarini,</li> <li>-Formalar va uning ob`ektlari tuzulishini.</li> <li>-Sarlavha teglarini.</li> </ul>
1. Mantiqiy va fizik formatlash, HEAD bo`limi xususiyat va vazifalarini ochib berish.	
2. Formalar va uning ob`ektlari tuzulishini tushuntirish.	
3. Sarlavha teglari bilan	
O`qitish uslubi	Sxema, Karusel
O`qitish vositalari	SHK, multimediali videoproektor, mavzu bo`yicha taqdimot, o`quv reja, ishchi o`quv reja.
O`qitish shart-sharoitlari	O`quv auditoriya

Ilova 3-mavzu:





#### 4-nazariy mashg`ulot

Mavzu	<b>Satr kattaliklar bilan ishlash. Satrlarni massivlarga</b>
Vaqt	2 soat
O`quv mashg`ulotining rejasি	<p>Multimediali ma`ruza</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Satrlar bilan ishlash. Qator formatini berish. Printf() funksiyasi bilan ishlash.</li> <li>2. printf() va tiplarni aniqlash. Qator formatini berish. CHiqadigan qiymat uchun maydon kengligini berish.</li> <li>3. Haqiqiy sonlarni aniqligini berish. Qatorlarni formatlash va saqlab turish.</li> <li>4. Qatorlarni tekshirish. Strlen() funksiyasi yordamida qator uzunligini aniqlash. Strstr() funksiyasi yordamida qatordan belgilarni aniqlash.</li> <li>5. Strpos() funksiyasi yordamida qidirilayotgan simvol o`rnini aniqlash. Substr() funksiyasi yordamida qatordan belgilarni qirqib olish. strtok() funksiyasi yordamida qatorlarni belgilash.</li> <li>6. Trim() va ltrim() funksiyalari yordamida qatordagi bo`shliqlarni tozalash. substr_replace() funksiyasi yordamida satr qismini almashtirish.</li> <li>7. str_replace() funksiyasi yordamida butun satrni almashtirish.</li> </ol>
O`quv mashg`ulotining maqsadi:	HTML da forma va freymlar, ular orasidagi bog`lanishlar bilan tanishtirish.
Pedagogik vazifalar: 1.HTML formalarining asosiy turlari va xususiyatlarini tushuntirish. 2.Freymlar tuzilishini tushuntirish. 3. Freym oynalari o`rtasidagi bog`lanishlar bilan tanishtirish.	O`quv faoliyatining natijalari: Biladi: -Formalar tarkibi vazifalarini, -Freym oynalarining tuzilishini.
O`qitish uslubi	Frontalli ma`ruza, didaktik materiallar.
O`qitish vositalari	SHK, multimediali videoproektor, mavzu bo`yicha taqdimot
O`qitish shart-sharoitlari	O`quv auditoriya

## 5-nazariy mashg`ulot

Mavzu	<b>Funksiya. Funksiyani yaratish. Funksiyaga dinamik murojaat qilish</b>
Vaqt	2 soat
O`quv mashg`ulotining rejasি	<p>Multimediali ma`ruza</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Funksiya nima? Funksiyalarga murojaat. Funksiyalarni yaratish. Qiymat qaytaruvchi funksiyalar yaratish. Funksiyalarga dinamik murojaat qilish</li> <li>2. O`zgaruvchilarni funksiyada ifodalanishi. Global instruksiyasi yordamida o`zgaruvchiga murojaat qilish.</li> <li>3. Funksiyaga murojaat qilishda uning holatini saqlab qolish.</li> <li>4. Ba`zi bir asoslar haqida. Argumentlarning aktiv holdagi qiymati.</li> <li>5. Murojaat bo`yicha argumentlarni jo`natish</li> </ol>
O`quv mashg`ulotining maqsadi:	maqsadi: HTML da forma va freymlar, ular orasidagi bog`lanishlar bilan tanishtirish.
Pedagogik vazifalar:  1. Klient tomoni (sohasi) da dasturlash. JavaScript ga kirish 2. JavaScript ning ob`ektli modeli tushunchasi 3. JavaScript ning URL-sxemasi 4. Sinflar ierarxiyasi 1.HTML formalarining asosiy turlari va xususiyatlarini tushuntirish.	O`quv faoliyatining natijalari: Biladi: <ul style="list-style-type: none"> <li>- Klient tomonidagi ssenariylar tuzilishini.</li> <li>- Java Script tili va uning tuzilishini.</li> <li>- JavaScript ning URL-sxemasini.</li> </ul>
O`qitish uslubi	Frontalli ma`ruza, didaktik materiallar.
O`qitish vositalari	SHK, multimediali videoproektor, mavzu bo`yicha taqdimot, fan dasturi, fanning ishchi dasturi.
O`qitish shart-sharoitlari	O`quv auditoriya

Ilova 5-mavzu:



## 6-nazariy mashg`ulotning texnologik xaritasi

Mavzu	<b>Massivlar. Bir va ko`p o`lchovli massivlar</b>
Vaqt	2 soat
O`quv mashg`ulotining shakli	Multimediali ma`ruza
O`quv mashg`ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Massiv nima? Massivlarni yaratish. array() funksiyasi yordamida massivni aniqlash.</li> <li>2. Identifikator yordamida massiv elementlarini yaratish.</li> <li>3. Strukturali (assosiirovanno`y) massiv. array() funksiyai yordamida strukturali massivni yaratish.</li> <li>4. Strukturali massivni tug`ridan-tug`ri yaratish.</li> <li>5. Ko`p o`lchovli massivlar.</li> </ol>
O`quv mashg`ulotining maqsadi: Java Scriptda boshqaruv jarayonlarini xususiyatlarini tasniflash.	
Pedagogik vazifalar: 1. JavaScript o`zgaruvchilar ma`lumotlar tipini berish. 2. JavaScript tili operatorlarini. 3. JavaScript tilida funksiyalarni ochib berish.	O`quv faoliyatining natijalari: Biladi: - JavaScript da o`zgaruvchilar va ma`lumotlar tipini. - JavaScript tili operatorlarini. - JavaScript tilida funksiyalarni.
O`qitish uslubi	
Suhbat, klaster, shutunchalar jadvali.	
O`qitish vositalari	SHK, multimediali videoproektor, mavzu bo`yicha taqdimot
O`qitish shart-sharoitlari	O`quv auditoriya

No	Xodisa	1-effekt	2-effekt
1.	Click va Double click (xar ikkisi uchun xam effektlar bir xil)	Fly out (matnni ekrandan uchib chiqib ketishi)  Formatting(shrift yoki chegara rangini o`zgartirish)	Ekran bo`ylab turli tomonlarga (To left, To top...)  Choose font... (o`zgaruvchi shriftni tanlash) Choose border... (o`zgaruvchi chegaranitanlash)
	Mouse over	Formatting(shrift yoki chegara rangini o`zgartirish)	Choose font... (o`zgaruvchi shriftni tanlash) Choose border... (o`zgaruvchi chegaranitanlash)
1.	Page load	Drop in by word (matnni so`z xosil bo`lishi)	2-effektga ega emas
		Elastik (matnni elastik xosil bo`lishi)	From right (o`ng tomondan) From bottom (markazdan) Ekran bo`ylab turli tomonlardan (From right, From bottom...)
	Hop Spiral Wave Wipe Zoom	Fly in (matnni ekranga uchib kirishi)	

## 7-nazariy mashg`ulotning texnologik xaritasi

Mavzu	<b>Massivlar. Massivlar bilan ishlash Massivlar ustida amallar.</b>
Vaqt	2 soat
O`quv mashg`ulotining shakli	Multimediali ma`ruza
O`quv mashg`ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Massiv xajmini aniqlash. sikl yordamida massivni ko`rish. Strukturali massivni siklda ko`rish.</li> <li>2. Ko`p o`lchovli massivlarni bruzerga chop qilish. Array_merge() funksiyasi bilan massivlarni bog`lash.</li> <li>3. Array_push() funksiyasi yordamida massivga element qo`shish.</li> <li>4. Array_shift() funksiyasi yordamida birinchi elementni o`chirish.</li> <li>5. Array_slice() funksiyasi yordamida massiv qismini ajratish.</li> </ol>
O`quv mashg`ulotining maqsadi: Java Scriptda boshqaruv jarayonlarini xususiyatlarini tasniflash.	
Pedagogik vazifalar:	O`quv faoliyatining natijalari: Biladi:
1.Shart operatorlarini tasniflash.	- SHart operatorlarini tasnifini
2.Takrorlanuvchi operatorlarni o`rgatish.	- Takrorlanish operatorlarini
3.Break va continue	- Majburiy boshqaruvchi operatorlar.
O`qitish uslubi	Beseda, klaster, shutunchalar jadvali.
O`qitish vositalari	SHK, multimediali videoproektor, mavzu bo`yicha taqdimot
O`qitish shart-sharoitlari	O`quv auditoriya

Ilova 7-mavzu:

Boshlash uchun quyidagilar zarur:

1. Rasm joylashuvchi soxani nomlangan xarita deb olish kerak:  
<map name="Karta\_1">
2. O'rnatiluvchi ishoratlarning manzillari va koordinatalarini belgilab olish kerak
3. Berilgan xarita soxasini yopish  
</ map>
4. SHundan keyingina rasm manzillarini undan xarita ko`rinishida foydalanish uchun berish mumkin:  


#### 4. Prezentetsiya

Fanning taqdimoti electron shaklda taqdim etilgan

## 5. Tayanch konspekt

Kirish. Internet va internet uchun dastur yaratuvchi dasturiy vositalar.

Ma'lumki, hozirgi kunda WEB-sahifalarni yaratish eng zamonaviy dasturlashlardan hisoblanadi. Bir necha yil avval ko'plab WEB-sahifalarini yaratuvchilar statistik ma'lumotlarnigina qo'llar edilar. WEB-sahifalar html-fayllardan tashkil topib, foydalanuvchi o'z brauzerini ishga yuklar va o'qiy olar edi. Sekin asta WEB – tarmog'ida foydalanuvchilar bilan aloqa uchun formalar yaratilib, qidiruv funkstiyalari hda o'zaro axborot almashinish imkoniyatlari yaratila boshlandi, lekin sahifaga murojat qiluvchiga statistik ma'lumotlar avvalgidek ko'rinishda ifodalab berildi. Eng e'tiborli tomoni tarmoq magazinlari paydo bo'lib, oldi-sotdi ishlarini shu tarmoq asosida amalga oshiruvchi dasturlar ishlab chiqarila boshlandi.

Shu kunlarda esa, WEB-sahifalarini yaratish dasturlari eng asosiy qurollardan biriga aylanib qoldi. Kompyuterlar foydalanuvchisi o'z shaxsiy ish rejalariga ega bo'lib, bu ishlarni, ya'ni elektron pochtani tekshirish, ko'rish rejalarini tartibga solish kabilarni shu sahifa asosida amalga oshiradi. Xatto ba'zi bir maxsus ma'lumotlarni tarmoq orqali mijozga namoyish etish uchun ham sahifa ko'rinishida uzatilib beriladi.

Agar WEB-sahifalarini tayyorlovchi sifatida asosan HTML, Javascript va grafik dizaynerlik bilan shug'ullanuvchi yoki dasturchi bo'lib, lekin WEB-dasturlash texnologiyasi bilan tanish bo'lman mutaxassis uchun bu fan (soha) ayni muddao hisoblanadi. U yuqori eng zamonaviy yo'nalishda qadam qo'yishga yordam beradi.

Bu qo'llanma PHP tiliga bag'ishlangan bo'lib, Perl, ASP va Java tillari bilan bir qatorda dinamik WEB-sahifalarni yaratishda yuqori o'rnlardan birini egallaydi. Ya'ni bu qo'llanma (internetda) dasturlash xaqida. Lekin, bu qo'llanma asosida dasturlash texnikasini to'liq egallab bo'lmaydi, chunki qo'llanmada PHP tilining barcha funkstiyalarini to'liq yoritib bera olmaymiz. Lekin shunga qaramasdan, PHP tilini o'rganish davomida ya'ni (boshlang'ich) dasturchi sifatida ushbu qo'llanmada ma'lum ma'noda boshlovchi sifatida etarlicha ma'lumotlarni olish mumkin.

Qo'llanma asosiy tushunchalar bilan boshlanib, PHP tilini etarlicha o'rganish bilan yakunlanadi. Bunda o'quvchidan alohida bunday tillar bilan ishlash malakasi talab qilinmaydi. Agar o'quvchi avval S yoki Perl tillar bilan tanishgan yoki biroz ishlagan bo'lsa o'zlashtirish yana ham tezroq bo'ladi.

PHP tili WEB-dasturlash uchun mo'ljallangan. Shuning uchun ham qo'llanmani to'liq o'zlashtirish uchun o'quvchidan HTTP protokoli xaqida va WWW qanday ishlashi xaqida tushunchaga ega bo'lish talab qilinadi. Agar HTML bilan biroz tanish bo'lib, oddiy kichik sahifalarni yaratishni bilsa juda ham yaxshi bo'ladi.

PHP tili ma'lumotlar bazasi bilan ishlashni engillashtish maqsadida ishlab chiqilgan. Ko'plab misollar MySQL ma'lumotlar bazasidan foydalanish asosida keltiriladi.

1-ma'ruza. PHP: shaxsiy sahifalardan tarmoqqacha.

Mavzuni o'rganish davomida quyidagi savollarga javob topish mumkin bo'ladi:

PHP nima?

PHP ning tarixi.

PHP ning yangi 4-versiyasida qanday yangiliklar bor?

PHP modullar xaqida

PHP texnologiyasining zamonaviyligi nimada?

PHP nima?

PHP –o’z nomini etarlicha tanitib ulgurganurgan, dasturlash tili hisoblanadi. Gap shundaki, boshlanishda bu uncha qiyin bo’limgan shaxsiy WEB –sahifalarini yaratish uchun mo’ljallangan oddiy makroslar to’plamidan iborat bo’lgan bo’lib, PHP-personal home page (shaxsiy uy sahifasi) so’zlarining qisqartmasidan iborat.

Vaqt o’tishi bilan makroslar to’plami mukammal dasturlash tiliga aylanib zamonaviy ma’lumotlar bazasi bilan ma’lumot almashish imkoniyatiga ega bo’lgan WEB tarmoq sahifalarini yaratuvchi tilga aylandi. Tilning imkoniyatlari kengaygani sari uning ommaviyligi ham o’sib bormoqda. Netcraft (<http://www.netcraft.com>) kompaniyasining ma’lumotlariga ko’ra 1999 yil noyabr oyida PHP texnologiyasi Web tarmoqlarining bir milliondan ortig’idan foydalanilgan 2000 yil 1400000 taga etgan.

PHPning 1-versiyasi Rasmus Lerdorf (Rasmus Lerdorf) ismli programmist tomonidan yaratilgan bo’lib, Web sahifalarini yaratishni engillashtirish uchun makroslar to’plamidan iborat bo’lgan.

Tez orada u foydalanuvchilar nazariga tusha boshladи, hamda tezlik bilan takomillashib, ommalashib bordi. 1997 yildan bu til ustida programmistlar guruhi ish olib boradi.

Mehnatlarning samarasida esa PHP3 keyingi versiya yaratildi. Bu PHPning takomillashgan va zamonaviy versiya bo’lib, unda matnlarni qayta ishslashning yangi usullari yaratildi va bu usullar Zib Zuraski va endi Gutmans (Zeev, Surasky, Andi Ceutmans) ismli programmistlar tomonidan yaratildi. Shuningdek tilning sintaksisida biroz o’zgarishlar kiritilib, yangi funkstiyalar qo’shildi. Yangi versiya shu davrda server uchun dasturlash tillarining eng zo’ri hisoblanib, juda ham tez ommalashib ketdi.

MySQL ma’lumotlar bazasi va Apache serveri bilan ishslash uchun PHP ning imkoniyatlari yanada kengayib bordi. Apache serveri hozirgi kunda dunyodagi eng keng tarqalgan Web-server hisoblanadi va PHP tili Apache serveri uchun modul ko’rinishida qo’llanilishi mumkin. MySQL - bu zamonaviy ma’lumotlar bazasi bo’lib, tekin tarqatiladi, shuning uchun ham PHPning barcha funkstiyalari shu bazaga bog’langan. Tan olish lozimki Apache, MySQL va PHPlarning o’zaro bir-biri bilan bog’liq ravishda ishlashi o’rtadagi raqobatga barham beradi.

Bu esa, PHP boshqa ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) bilan ishlamaydi degani emas. Bu texnologiya juda MBBT va Web-serverlar bilan ishslash imkoniyatiga ega.

WEB sahifalarni va tarmoqni yaratish yo’llari o’zgarishi bilan PHP ham takomillasha bordi. 1990-yil o’talariga kelib katta tarmoqlarda ham HTMLda yozilgan yuzlab statik sahifalar ishlatilar edi. Hozir esa jarayon o’zgarib bormoqda. WEB sahifalarini yaratuvchilar ma’lumotlar bazasi bilan ishlovchi WEB sahifalarni yaratish imkoniga ega bo’lib, foydalanuvchilarni qayta ishslash imkoniga ega bo’lgan WEB sahifalarni yaratmoqdalar.

Ma’lumotlarni saqlash va ma’lumotlarga murojat qilish uchun ma’lumotlar bazasidan foydalanish yanada dolzarblashib, mobil telefonlar, raqamlı televidenie va xokazolar. Turli xil qurilmalarda ma’lumotlarni uzatishda sifatni o’sishiga erishishmoqda.

Bu fikrlar asosida aytish mumkinki, kelgusida PHP tili yanada takomillashib o’zining o’ta yuqori darajadagi dasturlash tili ekanligini namoyon qiladi.

Ma’ruza bo’yicha savollar  
PHP tilining nomi nimani anglatadi?  
PHP tilining birinchi versiyasini kim yaratgan?  
PHP tilining yangi interpretatori nima deb nomlanadi?  
PHPning yangi 4-versiyasida qanday yangi xususiyatlar paydo bo’ldi?

2-ma’ruza. PHP dasturlash tili. PHPni o’rnatish.

PHP tilini o’rganishga kirishishdan avval uning konfigurasiyasini sozlash va o’rnatishni o’rganib olish lozim. PHP har xil sistemalarda va ko’plab serverlarda ishlashi mumkin.

Bu mavzuda quyidagi savollarga javob topish mumkin:  
PHP qanday sistemalarda, qanday serverlarda va qanday ma’lumotlar bazalari bilan ishlay oladi?  
PHPni qaerdan olish mumkin va boshqa yordamchi programmalar;  
Linux sistemasida PHPni qanday o’rnatiladi?  
Konfigurasiya direktivalari qanday bo’lishi mumkin?  
Yordamni qanday olish mumkin?

Sistemalar, serverlar va ma’lumotlar bazalari

PHP turli xil sistemalarda ishlay oladi. U sistema Windows, Unix OSning ko’plab versiyalari, shuningdek Linux va hatto Macintosh bo’lishi mumkin. PHP ko’plab tarmoq serverlarida, xususan Apache, Microsoft Internet Information Server, Web Site Pro, Iplanet Web Server va Microsoft Personal Web Serverlarda ishlashi mumkin. Agar tuzilgan dasturlarni Windows tizimida tekshirish lozim bo’lsa, u holda yuqorida sanab o’tilgan serverdan yoki Apache serveri Windows sistemasi boshqaruvida ishlasa ham foydalanish mumkin bo’ladi.

PHP interpretatori yordamida dasturni alohida mustaqil ko’rinishda kompilyastiya qilish mumkin. U holda dasturni mustaqil ishga tushirish mumkin. PHP tilini yaratishda ma’lumotlar bazasi bilan bog’lanish talablarini alohida e’tiborga olingan. Ko’plab ma’lumotlar bazalarini PHPda o’qish mumkin. Masalan bularga Adabas D, InternetBase, Golid, dBase, mSQL, Sybase, Empress, MySQL, Velosic, FilePro, Oracle, Unixdbm, Informix va hokazolarni keltirishimiz mumkin. Shuningdek, PHP ODBC standartini ham o’qiy oladi. Ushbu qo’llanmada esa Linux, Apache va MySQL serverlar asosida fikr yuritiladi. Bu uchta dasturlar majmualarini keng foydalanish mumkin bo’lgan serverlar hisoblanadi.

PHPni qaerdan olish mumkin?

PHPni <http://www.php.net> tarmog’idan olish mumkin. Buning uchun esa, alohida kredit kartochka talab kilinmaydi.

PHPni web-tarmog’i programmistlar uchun ajoyib manba hisoblanadi. <http://www.php.net/manual> adresida boshqa dasturchilarning izohlari, fikrlari va tanqidiy fikrlari keltirilgan ma’lumotlarni va qo’llanmalarni turli xil formatlarda olish mumkin.

## PHP.ini fayli

PHPni o'rnatib bo'lgandan so'ng, sozlash ishlarini PHP.ini fayli yordamida o'zgartirish mumkin. Agar kompyuterga UNIX operastion sistemasi o'rnatilgan bo'lsa, bu fayl /usr/local/lib katologida, agar Windows operastion sistemasi o'rnatilgan bo'lsa, Windows katologida joylashgan bo'ladi.

## Yordamchini qaerdan kidirish lozim?

Agar dasturlash tili omma uchun (tekin) bo'lsa, albatta yordamni Internetdan etarlicha topish mumkin. PHP tili bo'yicha siz bilan fikr almasha oluvchi yana bir yaxshi manba bo'lib, u PHP bilimlar bazasi, yani knowledge Base deb nomlanadi va uni <http://www.fagts.com/knowledge-base/index.phtml> elektron adresdan olish mumkin bo'ladi.

## Birinchi dastur.

Biz yuqorida PHPni o'rnatish va o'rganish bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarni oldik. Endi esa, PHPda birinchi dasturimizni yaratishga xarakat kilamiz. PHPda dastur tuzish uchun HTMLdagi kabi WEB-sahifa yaratishni bilishimiz lozim.

Ushbu dasturda esa, quyidagilarni o'rganiladi:


PHP-programmalarini yaratish, serverga nusxasini ko'chirish va ishga tushirish  
PHP komandalari va HTML matnini bitta xujjatga bog'lash  
Dastur matnini tushuntirish uchun izoh keltirish

## Birinchi dastur:

PHP-dasturni tuzish uchun ixtiyoriy matn redaktorini ishga tushirish mumkin. PHP – dasturi HTML- xujjatlari kabi oddiy matndan tashkil topadi. Shuning uchun dasturni ixtiyoriy matn redaktorida, agar unix bo'lsa, VI-yoki Emacsda ham yozish mumkin. Quyidagi dastur matnini kriting va uni first.php deb saklang:

```
<?php
    print "Hello web";
?>
```

ushbu dastur kengaytmasi albattda .php bo'lishi shart. Agar dastur server emas, balki klient kompyuterida tuzilgan bo'lsa, dastur faylini serverga kiritish uchun FTP servisidan foydalanishga to'g'ri keladi. Agar dasturda xatoliklar mavjud bo'lmasa, u holda natijani brauzer oynasida quyidagicha ko'rish mumkin.



## 2.1. Rasm

Agar dasturda yoki uning kengaytmasida xatolik mavjud bo'lsa, brauzer oynasida dastur matnining o'zi namoyon bo'ladi.



## 2.2.Rasm

PHP-komanda blokining berilishi.

PHP-programmani yozishda interpretatorga oddiy HTML-tekstdan fargini belgilovchi komandani berishimiz lozim. Aks holda komandalar HTML-tekst sifatida qabul qilinib brauzerga uzatiladi. Quyidagi jadvalda PHP-komandalarini berilishining 4-xil usuli keltirilgan.

Teg turlari	Ochuvchi teg	Yopuvchi teg
Standart	<?php	?>
kiskacha	<?	?>
ASP	<%	%>
Dasturiy	<script language="php">	</script>

Jadvalda keltirilgan standart va dasturiy teglar PHPning ixtiyoriy konfigurasiyasida ishlaydi. Qiska va ASP teglar ishlashi uchun php.ini faylida aniq keltirilgan bo’lishi lozim. Qiska teglar foydalanishi uchun php.ini faylida quyidagi direktiva yozilgan bo’lishi lozim:

Short\_open\_tag=on;

Shuning uchun php.ini faylini faqat off qilish uchungina tahrirlash mumkin. ASP tegida foydalanish uchun esa, quyidagi direktiva yoqilgan bo’lishi lozim:

Asp\_tags=on;

Php.ini faylini tahrir kilib, ixtiyoriy direktivadan foydalanish mumkin. Quyida barcha teglar uchun yozilgan dastur matnini ko’raylik:

```
<?
print "Hello web";
?>
```

```
<? php
print "Hello web";
?>
```

```
<%
print "Hello web";
%>
```

```
<script language "php">
print "Hello web";
```

```
</script>
```

```
print () funkstiyasi
```

Bu funkstiya ma'lumotlarni ekranga chop qilish uchun foydalaniladi. Ekranga beriladigan ma'lumotlar qavs – ( ) ichida beriladi. Ekranga beriladigan har bir ma'lumot qo'shtirnoq (" ") ichiga berilishi lozim. Shuningdek Print dan keyin qavs – () qo'yish ham, qo'ymaslik ham mumkin.

HTML va PHPning birgalikda ishlatalishi.

Quyida keltirib o'tiladigan dastur faqat PHP komandalaridan tashkil topgan. Lekin ochuvchi va yopuvchi teglar qo'shish orqali HTML- tekst qo'shib HTML va PHPning aralash hijjatini yaratish mumkin:

```
<html>
<head>
    <title> php va html hujjati </title>
</head>
<body>
<b>
<?php>
    print "Hello world!";
?>
</b>
</body>
</html>
```

Agar dasturni saqlab (.php) uni brauzer orqali ishga tushirsak, ekranda Hello world! yozuvi paydo bo'ladi.

PHP-dasturida izohlar (komentariyalar)

Ma'lumki, dasturni tuzish jarayonida hamma narsa tushunarli va oddiy dasturni ham tushunib olish qiyin bo'lib koladi. Shuning uchun ham, dastur yozish jarayonida albatta izoh keltirib borish zarur, chunki yaratilgan dasturdan foydalanuvchiga biroz osonroq bo'ladi.

Komentariya (izoh) - bu interpretorda qayta ishlanmaydigan, dasturdagi oddiy matn hisoblanadi. Izoh dasturni tushunish uchun engillik yaratish maqsadida foydalaniladi. Masalan:

```
// Bu izoh
```

```
* Bu ham izoh
```

Bulardan tashqari izoh sifatida /\* ochuvchi va \*/ yopuvchi belgilar orqali ham foydalanish mumkin.

```
/*
```

Bu izoh

Bu qatorda yozilgan hamma satrlar izoh hisoblanadi.

```
*/
```

## Xulosa

Yuqoridagi o'rgangan ilmlar, ma'lumotlar asosida PHP4 konfigurasiyasi to'g'ri o'rnatilgan bo'lsa oddiy dasturlarni tuzish mumkin.

Mavzuni o'zlashtirish davomida esa, huddi mana shunday dasturlarni yaratishni, matn redaktoridan foydalanishni, shuningdek PHP komandalarini ajratish uchun xizmat qiluvchi teglardan foydalanishni ham ko'rib chiqildi.

Endi, print() funkstiyasi yordamida brauzer oynasiga ma'lumotlarni chop qilishni, PHP-komanda va HTML – matnini birgalikda ishlatishni ham ko'rib o'tildi. Nihoyat, mavzu davomida izohlar va ulardan foydalanishni ham ko'rib o'tildi. Ma'ruza bo'yicha savollar.

Qanday hollarda dasturga izoh yozish lozim?

PHP komandalarini ishlatganda qanday teglardan foydalangan ma'qul?

PHP teglari standart holda qanday ko'rinishga ega?

PHP teglari ASP standartida qanday ko'rinishga ega?

Brauzer oynasiga ma'lumot chop qilish funkstiyasi qaysi va uning formati qanday?

3-ma'ruza. Ma'lumotlar tipi. O'zgaruvchi va o'zgarmaslar. Operator va ifodalar.

Ushbu mavzuda PHP tilining elementlari bilan tanishishni boshlaymiz. Bu mavzuni o'zlashtirish davomida PHP tili va uning imkoniyatlarini o'rganiladi. Boshqa dasturlash tillari bilan mukammal ishlagan foydalanuvchilar uchun bu juda ham katta e'tibor talab qilmaydi. Lekin mavzudagi asosiy bo'lgan ba'zi bir fikrlarga ahamiyat berish foydadan holi emas. Chunki, mavzuda PHP tilining o'zi uchun zarur bo'lgan ba'zi bir tomonlarni ham keltirib o'tiladi.

Ma'ruza davomida biz quyidagilarni o'rganamiz:

O'zgaruvchilar nima va ular nima uchun kerak bo'ladi?

O'zgaruvchini qanday yaratiladi, aniqlanadi va unga murojaat qanday bajariladi?

Ma'lumotlar va ularning tipi nima?

Operatorlar nima va ular PHPda qanday beriladi?

Operatorlar yordamida ifodalar qanday tuziladi?

O'zgarmaslar nima va ular qanday ishlatiladi?

O'zgaruvchilar.

O'zgaruvchi – bu shunday joyki, bu joyni tashkil etish va u erda dasturda kerak bo'ladigan ma'lumotlarni saqlash mumkin. Barcha o'zgaruvchilar \$ belgisi bilan boshlanuvchi alohida nomga ega bo'ladi. O'zgaruvchi nomida harf va sonlardan tashqari boshqa belgilarni, shuningdek bo'shliq (probel) qo'yish mumkin emas. Quyida o'zgaruvchini tashkil etishning to'g'ri keltirilgan holatini ko'raylik:

\$a;

\$a\_long\_ish\_variable\_name;

\$2453;

\$sleppyZZZZ;

Agar ahamiyat bersangiz, o'zgaruvchi oxirida nuqtali vergul (;) belgisi qo'yilyapti, lekin bu belgi o'zgaruvchi nomiga tegishli bo'lmaydi. Balki u o'zaro ajratuvchi simvol hisoblanadi.

O'zgaruvchini shunday quroq sifatida tasavvur qilish mumkinki, u bir xil tipdagi belgilarni o'zida saqllovchi maxsus yashik deyish mumkin. Bu o'zgaruvchida sonlar, simvollar, ob'ektlar, massivlar yoki mantiqiy qiymatlar saqlanishi mumkin. O'zgaruvchidagi berilgan qiymatlarni ixtiyoriy vaqtida o'zgartirish mumkin.

Dinamik o'zgaruvchilar.

Ma'lum bo'ldiki, o'zgaruvchi \$ belgi asosida e'lon qilinadi va undan so'ng o'zgaruvchi nomi keltiriladi. Lekin o'zgaruvchini boshqa o'zgaruvchida saqlash mumkinmi? Bu savolga quyidagi misol orqali javob topish mumkin:

```
$user="bob";
```

sifatida keltirilgan o'zgaruvchi quyidagi bilan ekvivalent hisoblanadi:

```
$holder="user";
```

```
$$holder="bob";
```

Bu erda \$holder ga user o'zlashtirilgani uchun \$ keyingi \$holder ni user deb tushunishi mumkin.

Dinamik o'zgaruvchini qatorli o'zgarmas yordamida e'lon qilish mumkin. Buning uchun o'zgaruvchi nomini {} ichida berilishi lozim: \${“user”} = “bob”;

Dinamik o'zgaruvchiga murojat qilish uchun xuddi shunday ketma ketlik bajariladi:

```
$user= "bob" ;
```

```
print=$user ;
```

Bu quyidagi bilan ekvivalent hisoblanadi:

```
$ user= "bob" ;
```

```
$holder= "user";
```

```
print $$ holder;
```

Lekin o'zgaruvchi nomini chop qilish uchun boshqacharoq beriladi:

```
$user= "bob";
```

```
$holder= "user";
```

```
print “$$ holder”;
```

Ekranda esa \$user chop qilib beriladi.

Yuqorida keltirilib o'tgan fikrga asos va tushunarli bo'lishi uchun quyidagi misolni keltirib o'taylik:

```
<html>
<head>
<title> Dinamik o'zgaruvchini yaratish </title>
</head>
<body>
<?php>
$holder="user";
$$holder="bob";
print "$user<br>";           // natija "bob" chiqadi
print "$$holder";            // natija "bob" chiqadi
print "<br>";
print "{$holder}<br>";       // natija "bob" chiqadi
print "{$user}<br>";         // natija "bob" chiqadi
```

```
?>
</body>
</html>
```

## Ma'lumotlar va ularning tiplari

Turli tipdagi ma'lumotlar xootiradan tirli xil joy egallaydi va ularni qayta ishslash ham har xil bo'ladi. Shuning uchun dasturlash tillarining ko'vida o'zgaruvchini e'lon qilish oldindan bajarilishi talab qilinadi. PHP tili esa, bunday qattiq talablardan yiroq bo'lib bu tiplarni alohida e'lon qilishni talab qilmaydi. Berilgan qiymatga qarab tipni o'zi ajratib oladi. Bu usul oson lekin kamchilikka ega hisoblanadi. Chunki o'zgaruvchilar ko'payib ketganda ularni nazorat qilish dasturchiga qiyinchiliklar keltiradi.


Quyidagi jadvalda PHP tilida foydalilaniladigan asosiy tiplarni keltirib o'tiladi:

Tip	Misol	Berilishi
Integer	5	Butun son
Double	3.234	Haqiqiy son
String	"hello"	Simvollar
Boolean	true	Mantiqiy ifoda
Object		Ob'ektlar
Array		Massivlar

PHP tilida shunday funkstiya borki, u o'zgaruvchi tipini aniqlab bera oladi. Agar gettype() funksiyasini ichiga o'zgaruvchi nomini berilsa, u natija sifatida tipni beradi. Quyidagi misolda gettype() asosida turli xil qiymatlarni oluvchi bitta o'zgaruvchi tipini aniqlash dasturini ko'rib o'tiladi:

```
<html>
<head>
    <title> O'zgaruvchi tipini aniqlash </title>
</head>
<body>
<?php
    $testing=5;
    print gettype($testing); // 1 integer;
    print <BR>;
    $testing = "five";
    print gettype($testing); // string;
    print <br>;
    $testing=5.12;
    print gettype($testing); // double;
    print <br>;
    $testing=true;
    print gettype($testing); // boolean;
    print <br>;
?
</body>
</html>
```

Bu dastur quyidagi natijalarni chop qilib beradi:



integer  
string  
double  
boolean

### 3.1. Rasm. O'zgaruvchi tipini aniqlash.

O'zgaruvchi tipini o'zgartirish

O'zgaruvchini tipini o'zgartirish uchun PHPda SetType funkstiyasidan foydalaniladi. Buning uchun funkstiyada o'zgaruvchining tipi va uning yangi tipi ko'rsatilishi lozim. SetType funkstiyasidan dasturdan foydalanishni quyidagi misol yordamida ko'raylik:

```
<html>
<head>
    <title> O'zgaruvchi tipini o'zgartirish </title>
</head>
<body>
<?php
    $ss=3.14 ;
    print gettype ($ss) ; // double
    print “- - $ss <br>” ; // 3.14
    SetType ($ss, string);
    print gettype ($ss) ; // string
    print “- - $ss <br> “ ; // 3.14
    SetType ($ss, Integer);

    print gettype ($ss) ; // integer
    print “- - $ss <br> “ ; // 3
    SETTYPE($SS, double);
    print gettype ($ss) ; // double
    print “--$ss <br>”; // 3.6
?>
</body>
</html>
```

Dastur natijasi



double- 3.14  
string- 3.14  
integer- 3  
integer-3

### 3.2. Rasm.

## Operatorlar va ifodalar

Operator - bu, bir yoki bir necha qiymatlardan yangi qiymatlarni hosil qilishda ishlataladigan simvol yoki simvollar to'plami.

Operanda – bu, operator yordamida qo'shiluvchi qiymat yoki o'zgaruvchi.

Masalan: ikkita operanda va bitta operator yordamida yangi son hosil qilishni ko'raylik:

misol

Bu erda 4 va 5 lar operanda «+» operator hisoblanadi.

Ifoda bu, operatorlar yordamida bajariluvchi ixtiyoriy son, o'zgaruvchi va funkstiyalarning kombinastiyasi hisoblanadi. PHP tilida o'zlashtirish operatorlarini “=” belgisi bilan belgilanadi. Masalan, `print($name="bob");`

PHPda ishlataluvchi asosiy arifmetik operatorlarni quyidagi jadval ko'rinishida keltirib o'taylik:

Operator	Nomlanishi	Misol	Natija
+	qo'shish	<code>10+3</code>	13
-	ayrish	<code>10-3</code>	7
/	bo'lish	<code>10/3</code>	3,33333
*	ko'paytirish	<code>10*3</code>	30
%	modul bo'yicha bo'lish	<code>10%3</code>	1

PHPda konkatenastiya operatori oddiy nuqta hisoblanadi. Bu operator o'ngidagi qatorni chapga qo'shib berish (bog'lash)da ishlataladi.

Masalan, “hello”. “world”; natija esa quyidagicha bo'ladi: “helloworld”.

## O'zlashtirishning qo'shimcha operatorlari

Aslida o'zlashtirish operatori bitta, lekin bir nechta arifmetik va o'zlashtirish operatorlari kombinastiyasidan tashkil topgan operatorlar ham mavjud. Bu operatorlarni quyidagi jadvalda keltirib o'taylik:

Operator	Misol	Ekvivalenti
<code>+ =</code>	<code>\$x+=5</code>	<code>\$x=\$x +5</code>
<code>- =</code>	<code>\$x-=5</code>	<code>\$x=\$x -5</code>
<code>/ =</code>	<code>\$x/=5</code>	<code>\$x=\$x /5</code>
<code>* =</code>	<code>\$x*=5</code>	<code>\$x=\$x *5</code>
<code>%=</code>	<code>\$x%=5</code>	<code>\$x=\$x %5</code>
<code>. =</code>	<code>\$x.="test"</code>	<code>\$x=\$x."test"</code>

## Solishtirish operatorlari.

Solishtirish operatorlari ikkita operandani solishtirish uchun ishlataladi. Ular ikkita operandani solishtirish natijasi to'g'ri bo'lsa “true” aks holda “false” natijasini beradi. Quyida solishtirish operatorlari keltirilgan jadvalni keltirib o'taylik:

Operator	Nomlanishi	Bajarilish sharti	Misol	Natija
<code>==</code>	Tenglik	Chap va o'ng operandlar	<code>\$x==5</code>	<code>False</code>

!=	Teng emas	teng Chap o'nga teng emas	\$x != 5	True
==	Bir xil	Teng va bir xil	\$x == 5	False

O'zgarmaslar

O'zgaruvchilardan foydalanish ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashning eng ajoyib usullaridan biri hisoblanadi. Biz bu o'zgaruvchilar qiymatini, xattoki tipini xoxlagan vaqtimizda o'zgartira olishimiz mumkin. Lekin dastur yaratish jarayonida shunday holat bo'lishini istab qolamizki, bunda bizni bergan qiymat yoki ma'lumot dasturni yaratish va foydalanish jarayonida, kerak bo'lsa tasodifan o'zgarib ketishdan holi bo'lsin, ya'ni o'zgarmasin. Buning uchun o'zgarmaslardan foydalanish zarur. PHPda o'zgarmaslar bilan ishlovchi define() funkstiysi manashu maqsadda ishlataladi. Bu funkstiya yordamida yaratilgan o'zgarmas (konstanta) dasturni yaratish va foydalanish jarayonida o'zgartirilmaydi. O'zgarmasni tashkil etish uchun define() funkstiyasida o'zgarmas nomi va uning qiymati beriladi.

define ("nomi", 42)

O'zgarmas qabul qiladigan ma'lumot qiymat va simvol bo'lishi mumkin. O'zgarmas nomi esa faqat katta harflar bilan beriladi. O'zgarmasdan foydalanishda faqat katta harflar bilan \$ belgisini oldiga qo'ymasdan yoziladi.

Quyidagi misolda o'zgarmasdan foydalanish dasturda qanday ishlatalishiga misol sifatida keltirib o'tiladi:

```
<html>
<head>
<title>O'zgarmaslarni tashkil etish</title>
</head>
<body>
<?php
define("USER", Gerald);
print "Welcome".USER;
?>
</body>
</html>
```

Agar dasturga ahamiyat bersilsa, «Welcome» yozuvidan co'ng konkatenastiya (.) belgisidan foydalanildi. Dastur bajarilishi natijasida ekranda quyidagi ko'rinish hosil bo'ladi.



WelcomeGerald

### 3.3.Rasm.

PHPda yana bir imkoniyat borki, u foydalanuvchiga avtomatik ravishda bir nechta o'zgarmas tashkil etib beradi. Masalan, \_FILE\_ o'zgarmasi faqat foydalanilayotgan aktiv fayl nomini o'zida saqlaydi. \_LINE\_ ishlatalayotgan fayldagi aktiv qatorni aniqlab beradi va x.k.

Xulosa

Bu mavzuni o'zlashtirish davomida PHP tilining asosiy elementlari bilan tanishib o'tildi. Ya'ni, o'zgaruvchilarni qanday tashkil etish, ularga qiymatlarni qanday o'zlashtirish, o'zgaruvchilar ustida arifmetik amallarni bajarish, tiplar va ularni e'lon qilish kabi ishlarni bajarishni o'rganib chiqildi. Niroyat, PHP tilida ishlatiladigan o'zgarmaslar va ularni berishni ham ko'rib o'tildi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, endi PHP tilda ixtiyoriy ma'lumotni tipni berish, o'zgaruvchilarni tashkil etish, ularga qiymatlarni berib, kiritilgan qiymat tiplarini aniqlab, ularni brauzer oynasiga chop qilib bera olish mumkin. Bu esa sizga kelgusidagi ma'ruzalarni o'zlashtirish uchun juda katta yordam bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuni qaytarish bo'yicha savollar.

O'zgaruvchi qanday tipga ega ekanligini bilish nima uchun zarur?

O'zgaruvchini e'lon kilishda uning nomini qandaydir tartib asosida e'lon qilish shartmi?

Operatorlarda hisoblash ketma-ketligini bilish zarurmi?

Quyidagi qator bajarilganda ekranda nima chikadi? Print gettype("4")

O'zgaruvchilarni e'lon kilishda quyidagi misollardan kaysi birida xatolik mavjud?

\$a\_value\_user

\$666666xyz

\$xyz666666

\$ counter

\$the first

\$file-name

\$ism

#### 4-Ma'ruza: Shartlar (if, elseif). Stikllar (while, for)

Ma'lumki, jarayonlar chiziqli, takrorlanuvchi va tarmoqlanuvchi bo'lishi mumkin. Hozirgacha o'rgangan va ko'rib o'tilgan misollar faqat chiziqli jarayonga tegishli edi. Bu mavzuning asosiy maqsadi esa, PHP tilida tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi jarayonlar uchun qanday funkstiya, prostedura va instrukstiyalardan foydalanilishi bilan tanishishdan iborat. Bu mavzuda asosan quyidagilarni o'rganiladi:

if instrukstiyasi yordamida dasturdagi ba'zi bir shartlarni qanday tekshirilishi va bajarilishi;

Shart bajarilmagan qism uchun dasturning alternativ bo'limini qanday yaratish; Switch yordamida ba'zi bir ifodalarni qiymatini e'tiborga olgan holda dastur qismini qanday yaratish ;

While yordamida stiklik jarayonni tashkil etish;

For yordamida stiklik jarayonlarni tashkil etish;

Iziklik jarayonlarni to'xtatish qanday bajarilishi;

Bir necha stiklik jarayonlarni birgalikda qanday tashkil etilishi.

PHP da shartli jarayonlarni ifodalash.

Juda ko'p dasturlar ma'lum bir shartlar sababli o'zining holatini o'zgartirib turadi.

Ma'lum bir aniq shartlar asosida dasturning takomillashuvchi yaratilayotgan dasturlar va Web sahifalarning dinamikligini yanada mustahkamlaydi. Boshqa dasturlash tillari kabi PHP tili ham shartli instrukstiyalardan foydalanadi. Bu instrukstiya PHP4 da if yordamida amalga oshiriladi.

IF operatoridan foydalanish.

IF instrukstiyasidan foydalanilayotganda hisoblash jarayoni uchun shart qavslar ichida tekshiriladi. Agar shart bajarilsa (true bo'lsa) blok ichidagi ifoda bajariladi, aks holda blok ichidagi ifoda to'liq tashlab yuboriladi. IF instrukstiyasining umumiy ko'rinishdagi sxemasini quyidagicha keltirish mumkin:

IF (shart)

{

// bu erdag'i ifoda agar berilayotgan shart rost bo'lsa bajariladi


}

Keltirib o'tilgan umumiy sxemani yanada aniqrok tushunib olish uchun quyidagi misolni keltirib o'taylik.

Misol №4.1

```
<html>
<head>
<title>IF yordamida shartli ifodaning bajarilishi</title>
</head>
<body>
<?php
$holat="happy";
if ($holat=="happy")
{
print "Mening kayfiyatim juda ham yaxshi!";
}
?>
</body>
</html>
```

Operator yordamida \$mood o'zgaruvchi qiymatini "happy" qatori bilan solishtiramiz. Agar shart bajarilsa, blok ichidagi yozuv ekranga beriladi, aks holda berilmaydi.



Mening kayfiyatim juda ham yaxshi!

#### 4.1-rasm. 4.1-misolning bajarilish natijasi

Keltirib o'tilgan misolda blok ichidagi instrukstiya ko'p emas, shuning uchun bu blokni yanada ixchamroq ko'rinishda quyidagicha keltirish mumkin:

if (\$holat== "happy")

print " Mening kayfiyatim juda ham yaxshi!";

IF instrukstiyasining else bloki

IF instrukstiyasini keltirish jarayonida beriladigan shart bajarilmasa alternativ blok keltirishga majbur bo'lib qolinadi. Buning uchun esa, if shartdan keyingi blokdan so'ng else blokini ham berish lozim. Umumiy holda bu instrukstiya formatini quyidagicha keltirish mumkin:

If (shart)


{

//bu blokdagi ifodalar shartni tekshirish natijasi rost bo'lganda bajariladi

```

}
else
{
// bu blokdagi ifodalar shartni tekshirish natijasi rost bo'lganda bajariladi
}
Keltirib o'tilgan umumiy sxemani yanada mustahkamlash uchun quyidagi misolni
ko'rib o'taylik:
Misol №4.2
<html>
<head>
<title>IF else blokida shartlarni qo'llash</title>
</head>
<body>
<?php
$holat ="yomon";
if ($holat= ="happy")
{
print "Mening kayfiyatim juda ham yaxshi!"
}
else
{
print "Menda kayfiyat $holat";
}
?>
</body>
</html>

```



Menda kayfiyat yomon

#### 4.2-rasm.

\$holat o'zgaruvchisi bu misolda sad qatorini qabul qiladi, bu esa “happy” qatori bilan bir xil emas, shuning uchun ham shart bajarilmaydi. Bu esa, birinchi blokni bajarilmasligini bildirib, keyingi blokda keltirib o'tilgan ifodani ekranga berilishi bildiradi.

IF instruksiyada keltiriladigan else bloki murakkab masalalarni echish imkoniyatini beradi. PHP tilida esa, yanada murakkabroq bo'lgan shartlarni tekshirish imkoniyatlari mavjud bo'lib bu shartlarni keyingi mavzularda keltirib o'tiladi.

IF instruksiyasining elseif blokidan foydalanish

If-elseif-else konstruksiyasi yordamida bir necha shartlarni tekshirish imkoniyati mavjud bo'lib, uning umumiy sxemasini quyidagicha keltirish mumkin:

If (1-shart)

{

//bu blokdagi ifodalar shartni tekshirish natijasi rost bo'lganda bajariladi

}

```

elseif (2-shart )
{
// bu blokdagi ifodalar 1-shartni tekshirish natijasi yolg'on va 2-shartni
// tekshirish
//natijasi rost bo'lganda bajariladi
}
else
{
// bu blokdagi ifodalar boshqa barcha holatlar uchun bajariladi
}

```

Agar birinchi shart bajarilmasa, u holda birinchi blok tashlab utiladi. Elseif blokida ikkinchi shart tekshiriladi, agar 2-shart bajarilsa 2-blokdagi ifoda bajariladi. Agar 2-shart ham bajarilmasa, u holda oxirgi blok bajariladi.

Keltirib o'tilgan sxemani yanada mustahkamlash maqsadida bitta misolni ko'raylik va uni tahlil qilaylik:

Misol №4.3

```

<html>
<head>
<title> else va elseif blokini tekshirish</title>
</head>
<body>
<?php
$holat="yomon";
if ($holat= ="happy")
{
print "Mening kayfiyatim juda ham yaxshi!";
}
elseif ($holat= ="yomon")
{
print "Kayfiyatim $holat ";
}
else
{
print "Kechirasiz, $holat ni nima ekanini tushunmadim";
}
?>
</body>
</html>

```



Kayfiyatim yomon

4.3-rasm.

Avvalgi misoldagilar kabi \$holat o'zgaruvchiga "yomon" berilgan va "happy" bilan solishtiriladi. Lekin elseif asosida shart tekshirilganda \$holat o'zgaruvchi sad bilan

tekshiriladi, bu holda esa, shart bajariladi. Shuning uchun ham 2-blokdagi ifoda bajarilib, ekranga «Ajoyib natija» yozuvi chikariladi.

### Switch instrukstiyasi

Switch instrukstiyasi – bu dasturni bajarilish jarayonida yana bir necha oqimlarni tashkil kiluvchi va ajratuvchi hisoblanadi. IF instrukstiyasi va Switch instrukstiyalari o'rtasida biroz farq mavjud. IF instrukstiyasi yordamida va elseif bloki yordamida shartlarni tekshirib bir necha ifodalar ustida hisob kitoblarni bajarishimiz mumkin. Switch instrukstiyasi esa, faqat bitta (ifoda bilan) shartni bajarish imkonini beradi. Lekin bu shart bilan bir necha o'zgaruvchilarni solishtirish va bajarish imkonini beradi. IF instrukstiyasida natija faqat «rost» yoki «yolg'on» bo'lishi mumkin edi. Switch instrukstiyasida esa, bitta solishtiriladigan ifodani berib, uni bir nechta qiymatlar va o'zgaruvchilar bilan solishtirish imkoniyati mavjud. Lekin ular oddiy tiplardan iborat bo'lishi lozim, ya'ni ular butun, qatorli yoki mantikiy bo'lishi mumkin. Switch instrukstiyasining umumiyyatini quyidagicha keltirib o'tish mumkin:

Switch (shartli ifoda)

{

case 1-shartli ifoda:

// agar 1-shartli ifoda rost bo'lsa, ushbu blok bajariladi

break;

case 2-shartli ifoda:

// agar 2-shartli ifoda rost bo'lsa, ushbu blok bajariladi

break;

default;

//yuqorida keltirib o'tilgan n-shartli ifodalarning birortasi ham

// bajarilmasa,

//ushbu blok bajariladi

}

Switch konstrukstiyasida asosan oddiy tiplardan foydalananiladi. Bu instrukstiyada tekshirish jarayoni har bir blok uchun alohida ko'rib o'tiladi. Agar shart bajarilmasa keyingi shartli ifoda tekshiriladi. Agar shart bajarilsa, shu blokdagi ifodalar bajariladi. Break so'zi esa, blokdan chiqish maqsadida ishlatalib, agar bu so'z tushirib koldirilsa, keyingi blokning shartini tekshirish davom etadi.

Agar barcha shartli ifodalar bajarilmasa, u holda default blokidagi ifoda bajariladi. Shuni eslatib o'tish joizki, har bir blokdan keyin break so'zini tushirib qoldirmaslikka harakat qilish lozim. Chunki, jarayonda har bir shartli ifodalar tekshirib chiqiladi va bu dasturning hisoblash vaqtini ancha ko'paytirib yuborishi mumkin.

Keltirib o'tilgan Switch instrukstiyasining umumiyyatini yanada yaxshiroq tushunib olish uchun bitta misol kerib o'taylik:

Misol №4.4


```
<html>
<head>
<title> Switch tuzilmasini tekshirish</title>
</head>
<body>
```

```

<?php
$holat="yomon";
Switch ($holat)
{
case "happy": print "Mening kayfiyatim juda ham yaxshi!";
break;
case "yomon": print "Kayfiyatim yomon";
break;
default: print "$holat nimaligini tushunmadim";
}
?>
</body>
</html>

```

Avval keltirib o'tilgan misolning Switch instrukstiyasidan foydalanib tuzilgan dasturini keltirib o'tildi. Bu dasturning natijasida ham ekranga «Kayfiyatim yomon» yozuvchi chiqadi.



Kayfiyatim yomon

#### 4.4-rasm.4.4.-misoldagi dasturning ekranda olingan natijasi.

Bu blok ajralib bo'lgandan so'ng, break so'zi shartlarni tekshirish blokidan chiqish imkonini beradi.

? operatori.

? operatori ikki shartdan birini qiymatini qaytaradi. Bu shartdan keyingi ifodalar o'zaro ":" bilan ajratib yoziladi. Qaysi bir natija qaytarilishi esa, sinov-shartga bog'liq bo'ladi. Uning umumiy sxemasini keltirib o'taylik:

(sinov-sharti): 1-ifoda: 2-ifoda;

Agar sinov-sharti rost (true) bo'lsa, u holda birinchi ifodaning qiymati qaytariladi, aks holda esa, ikkinchi ifodaning qiymati qaytariladi. Quyidagi misolni sinov-shartga bog'liq bulgan \$holat o'zgaruvchisini qanday qiymat qaytarishini tekshirish uchun hamda keltirib o'tilgan umumiy sxemani yanada yaxshiroq tushunib olish maqsadida ko'rib o'taylik:

Misol №4.5

```

<html>
<head>
<title> ? operatori </title>
</head>
<body>
<?php
$holat="happy";
$text=($holat=="happy") ? "Mening kayfiyatim yaxshi": "Mening kayfiyatim yaxshi emas";
print "$text";
?>

```

```
</body>
```

```
</html>
```

Bu misol \$holat= “happy” ni o’zlashtirgan. Bu o’zgaruvchi esa, “happy” bilan solishtiriladi. Albatta bu hol uchun natija bo’lib, birinchi blokdagi yozuv chop qilinadi.



Mening kayfiyatim yaxshi

#### 4.5-rasm. 4.5-misol uchun ekranda olingan natija

? operatordan foydalanish albatta biroz og’irroq tuyulishi mumkin, lekin u dasturni o’ta ixcham chiqishi uchun ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, bu operator faqat ikkidan birini tanlash uchungina foydalaniladi.

Цикллар.

Biz shu davrga qadar dasturdagi jarayon qanday shartlarga uchrashi mumkin, qanday amallarni bajarishi mumkin va qanday tiplar bilan ishlash mumkinkinligi to’g’risida fikr yuritib keldik. Ushbu mavzuning asosiy maqsadi esa, dasturdagi biror biror jarayon va ifoda necha marta bajarildi yoki qanday qadam bilan necha marta bajarilishini o’rganishdan iborat.

While стикли.

While стикли о’зининг sxema shakli bilan IF инструктиясини esga soladi. Унигумумий sxemasi quyidagicha beriladi:

While (ifoda)

```
{  
    //stiklning o'zagi  
}
```

Toki ifoda «yolg’on» bo’lguncha, bu blokdagi jarayon bajarilaveradi. Stiklning o’zagida esa, ifodada keltiriladigan o’zgaruvchini o’zgarishini ta’minlovchi kalit qo’yish lozim, aks holda bu jarayon to’xtovsiz davom etadi. Stiklik jarayon sxemasini yanada mukammalroq ko’rish uchun quyidagi misolni ko’rib o’tamiz. Bunda dastur ko’paytirish jadvalini ekranga chop qilib beradi:

Misol №4.6

```
<html>  
<head>  
<title> While sikli </title>  
</head>  
<body>  
<?php  
$counter=1;  
while ($counter<=12)  
{  
print "$counter ni 2 ga ko'paytirsak ".($counter*2)." bo'ladi"."<br>";  
$counter++;  
}  
?>  
</body>
```

</html>

Bu erda biz dasturni to'xtovsiz ishlashdan saqlash maqsadida \$counter dan foydalanamiz va uning qiymatini oshib borishini (\$counter++) ta'minlaymiz. Quyidagi rasmda keltirilgan natija fikrimizga dalil bo'la oladi.



```
1 ni 2 ga ko'paytirsak 2 bo'ladi
2 ni 2 ga ko'paytirsak 4 bo'ladi
3 ni 2 ga ko'paytirsak 6 bo'ladi
4 ni 2 ga ko'paytirsak 8 bo'ladi
5 ni 2 ga ko'paytirsak 10 bo'ladi
6 ni 2 ga ko'paytirsak 12 bo'ladi
7 ni 2 ga ko'paytirsak 14 bo'ladi
8 ni 2 ga ko'paytirsak 16 bo'ladi
9 ni 2 ga ko'paytirsak 18 bo'ladi
10 ni 2 ga ko'paytirsak 20 bo'ladi
11 ni 2 ga ko'paytirsak 22 bo'ladi
12 ni 2 ga ko'paytirsak 24 bo'ladi
```

4.6-rasm. 4.6-misolda keltirib o'tilgan dasturdan olingan natijaning ekranda berilishi.

Agar bu holatni o'rnatish esdan chiqib qolsa, dastur uzlucksiz stiklni bajaradi va dasturda osilish sodir bo'ladi.

Do..while stikli.

Do..while stikli while stiklini eslatadi. Faqat bu stiklik jarayonning avvalgisidan asosiy farqi shundaki, stiklik jarayonda tekshirish keyin bajariladi. Uning umumiy sxemasi esa quyidagicha beriladi:

Do

```
{  
    // stiklning uzagi  
}
```

while (mantikiy ifoda)

Shuni yodda tutish lozimki, stikl shartini tekshirishda (;) belgisi albatta qo'yilishi shart.

Bu stiklik jarayonni yutuq tomoni shundaki, shart tekshirilgunga qadar stikl eng kamida bir marta bajariladi. Bu stiklni yanada mustahkamroq tushunib olish uchun quyidagi misolni ko'rib o'tamiz. Bunda stiklik jarayon bir marta bajariladi:

Misol №4.7

```
<html>
<head>
<title> Do..While stikli </title>
</head>
<body>
<?php
$num=1;
do
{
    print "Циклик jarayon davom etadi: $num<br>\n";
$num++
}
```

```

while ($num>200 && $num<400);
?>
</body>
</html>

```

Bu stiklik jarayonda \$num o'zgaruvchisi tekshiriladi. O'zgaruvchi \$num ning qiymati 200 va 400 oralig'imi yoki yo'qligi shartda beriladi. Albatta \$num o'zgaruvchisiga berilgan qiymat 1 ga teng. Shuning uchun ham 200 va 400 sonlari oralig'iga tegishli bo'limganligi sababli bu stiklik jarayon faqat bir marta bajariladi va brauzerga faqat bitta natija ko'rsatiladi.



Siklik jarayon davom etadi: 1

4.7-rasm. 4.7-misolda keltirib o'tilgan dasturdan olingan natijaning ekranda berilishi.

For stikli.

For stikli ortiqcha hech qanday yangilikka ega emas, chunki bu stikl yordamida yuqoridagi stiklik jarayonlar kabi shartlarni tekshirish imkoniyati yo'q. Faqat bunda bir maqsadga yo'naltirilgan stiklik jarayonlar tashkil etiladi, ya'ni ma'lum bir oraliqda, ma'lum bir qadamlar bilan stiklik jarayon bajariladi. Bu stiklik jarayonni umumiylsxemasi quyidagicha beriladi:

For (boshlang'ich qiymat; oxirgi qiymat yoki shart; qadam)

```

{
    //stikl o'zagi
}

```

Keltirib o'tilgan stiklda albatta qiymatlar (;) belgisi bilan ajratilishi shart. Quyida keltirib o'tiladigan misolda 1 dan 12 gacha bo'lgan sonlarni 2 ga ko'paytirishda hosil bo'ladi natijalar brauzerga chiqarib beriladi.

Misol №4.8

```

<html>
<head>
<title> For stikli </title>
</head>
<body>
<?php
For(%counter=1; $counter<=12; $counter++)
{
    print "$counter ni 2 ga ko'paytirsak hosil bo'ladi: \" .($counter*2). \"<br>";
}
?>
</body>
</html>

```

Ushbu dasturning natijasi Misol №4.6 da keltirilgan misolning natijasi bilan deyarli bir xil bo'ladi. Lekin bu dastur avvalgi keltirib o'tilgan dasturga nisbatan ancha ixchamroq hisoblanadi. Dastur o'ta tushunarli va mantiqan to'g'rilingini e'tiborga olsak, aytish mumkinki bu dastur ancha soddarok ko'rinishga ega bo'ladi.

Циклик jarayonda avval shart tekshiriladi keyin esa, stiklning o'zagi bajariladi. Bu stiklik jarayon tekshirilayotgan shart yolg'on (false) bo'lgunicha bajariladi. Цикллардаги uzilishlarni tashkil etuvchi break instrukstiyasiFor va while stikllarida shunday shart mavjudki, u stiklik jarayonning davomiyligini belgilab bera oladi. U asosan bajarilayotgan stiklik jarayonni muddatidan avval to'xtatishda foydalaniladi. Buning uchun esa, albatta maxsus shart tekshirilishi lozim. Bu jarayonni yanada to'liqroq tushunish uchun quyidagi misolni keltirib o'taylik. Bunda stikl bo'yicha ortib boruvchi songa 400 bo'linib natija oynaga beriladi.

Misol №4.9o'

```
<html>
<head>
<title> For stikli asosiy sonni bo'lish </title>
</head>
<body>
<?php
For(%counter=1; $counter<=10; $counter++)
{
    $temp=4000/$counter;
    print " 400 ni $counter ga bo'lsak hosil bo'ladi $temp<br>";
}
?>
</body>
</html>
```

Dasturda har bir stiklik jarayon uchun 400 ni 1...10 gacha bo'lgan sonlarga bo'lib, natija brauzer oynasiga beriladi. Ko'rinishidan dastur juda ham to'g'riga o'xshaydi. Albatta to'g'ri, lekin boshlang'ich qiymatni manfiy sondan boshlasak, unda mifik kursidan ma'lumki, maxrajda nol sonini ishlatib bo'lmaydi. Bunda echim ma'noga ega bo'lmay qoladi. Xuddi mana shu vaziyatda biz ko'rib o'tayotgan break instrukstiyasi zarur bo'ladi. Quyida keltirib o'tiladigan misolda mana shu vaziyat inobatga olinadi.

Misol №4.10

```
<html>
<head>
<title> For stiklida break instrukstiyasidan foydalanish </title>
</head>
<body>
<?php
%counter=-4;
For(%counter=1; $counter<=10; $counter++)
{
if (%counter==0)
break;
$temp=4000/$counter;
    print " 400 ni $counter ga bo'lsak hosil bo'ladi $temp<br>";
}
```

```
?>
</body>
</html>
```

PHP tilida adashib biror qiymatni nolga bo'lib yuborilsa ham dastur xatolik sifatida qabul kilib o'tirmay, bu haqda foydalanuvchiga ma'lumot berib, o'ishini keyingi qatordan davom ettiraveradi. Dasturda esa, break instrukstiyasidan o'stiklik jarayon o'ishini yakunlab stiklning tugashidan boshlab o'ishini davom ettiradi.

Continue instrukstiyasi yordamida iterastiyani davom ettirish.

Continue instrukstiyasi stiklik jarayonni to'xtalishidan keyingi davomiyligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Lekin bu instrukstiya avvalgi instrukstiya kabi stiklik jarayonni to'xtatmaydi, balki schetchikni bittaga oshirib keyingi stiklni boshlaydi. Yuqorida keltirib o'tilgan misolda dastur juda ham yaxshi chiqqan edi. Lekin yaxshirok ahamiyat bersak, stiklik jarayon schetchik nolga teng bo'lgandan keyin to'xtatiladi. Bu esa, dasturchi talabini etarlicha qanoatlantirmaydi. Agar dasturdagi break o'rniغا continue ishlatalganida edi, stiklik jarayon davom etib, o'rtadagi uzilishni continue to'ldirgan bo'lar edi. Quyida shu misolni continue buyrug'i yordamida bajarilishini keltirib o'taylik.

#### Misol №4.11

```
<html>
<head>
<title> Continue instrukstiyasidan foydalanish </title>
</head>
<body>
<?php
%counter=-4;
For(%counter=1; $counter<=10; $counter++)
{
if (%counter==0)
Continue;
$temp=4000/$counter;
    print " 400 ni $counter ga bo'lsak hosil bo'ladi $temp<br>";
}
?>
</body>
</html>
```

Bu dasturning yuqorida keltirib o'tilgan dasturdan asosiy farqi, continue buyrug'ida va olinadigan natijada bo'ladi. Chunki natija noldan keyingi qiymatlar uchun ham chiqarib beriladi.

Continue va break instrukstiyalaridan dastur tuzish jarayonida ko'p foydalanish, dasturning tushunarsizligini ancha oshiradi, hamda keraksiz va topish qiyin bo'lgan xatoliklarni keltirib chiqarish ehtimolligi katta bo'ladi. Agar shularni e'tiborga oladigan bo'lsak, bu instrukstiyalardan kamroq, iloji bo'lsa umuman foydalanmaslikka xarakat qilish maqsadga muvofiq.

Ichma-ich stikllarni tashkil etish.

Ma'lumki, stiklik jarayonlar bitta o'zgaruvchiga bog'liq bo'lishi ham, bir necha o'zgaruvchiga bog'liq bo'lishi ham mumkin. Masalan, bir o'lchovli masalalarini echishda faqat bir o'zgaruvchiga bog'liq bo'lgan stiklik jarayonlar asosida echim olish mumkin. Lekin, agar masala ikki o'lchovda berilgan bo'lsa hamda ikkita o'zgaruvchiga bog'liq bo'lsa, u holda albatta ichmi-ich joylashgan stiklik jarayonlarni tashkil etish zarur bo'ladi.

Bulardan tashqari jadvallarni qayta ishlashda ham foydalanishi mumkin. Quyida keltirib o'tmoqchi bo'lgan misolda ham ko'paytirish jadvali va uning natijasini chop qilib berish uchun tashkil etilgan ichma-ich stiklik jarayon keltiriladi.

#### Misol №4.12

```
<html>
<head>
<title> Ichki-ich joylashgan stikllardan foydalanish </title>
</head>
<body>
<?php
print "table border=1>\n";
For(%y=1; $y<=12; $y++)
{
print "<tr>\n";
for (%x=1; $x<=12; $x++)
{
    print "<t>";
    print ($x*$y);
    print "</td>\n";
}
print "</tr>\n";
}
print "</table>";
?>
</body>
</html>
```

Bu erda stiklik jarayon x va u bo'yicha tashkil etilgan bo'lib, tashqi stikl u, ichki stikl esa, x hisoblanadi. Stiklik jarayon boshlangan davrda tashqi stikl qiymati  $u=1$  ga teng bo'ladi, toki bu jarayon x o'zgaruvchi bo'yicha bir marta to'liq stikl aylanmaguncha o'zgarmaydi. X bo'yicha stiklik jarayon bir marta to'liq tugagandan so'ng esa, tashqi stikl  $u=2$  ga aylanada va ichki stikl yana aylanishni boshlaydi. Shunday qilib har bir stiklda olingan natija jadvalda keltirib o'tiladi.

jadval

Ma'ruza bo'yicha savollar.

if instrukstiyasi yordamida qanday qilib 18 yoshga kirgan va undan katta yoshdagilarga «Haydovchilikka guvohnoma berish mumkin» agar 18 yoshdan kichik «Haydovchilikka guvohnoma berish mumkin emas» yozuvlarini chiqarish mumkin?  
while stikli yordamida 1 dan 49 gacha bo'lgan toq sonlarni ekranga chop qilib berish qanday tashkil etiladi?

Xuddi shu jarayon for stikli yordamida qanday tashkil etiladi?

5-ma'ruza. Satr kattaliklar bilan ishlash. Satrlarni massivlarga

```
<head>
<title> k </title>
<head>
<body>
<?php
$number=543;
printf ("desyatichnoe predstavlenie :%d<br>", $number);
printf ("dvoyichnoe predstavlenie :%d<br>", $number);
printf ("vyeqvstvennoe predstavlenie :%f<br>", $number);
printf ("vosmerichnoe predstavlenie :%o<br>", $number);
printf ("strochnoe predstavlenie :%s<br>", $number);
printf ("shestnadstaterichnoe predstavlenie (nijniy registr)::%xd<br>", $number);
printf ("shestnadstaterichnoe predstavlenie (verxniy registr)::%xd<br>", $number);
?>
</body>
</html>
```

### Qiymat qaytaruvchi funkstiylar yaratish

Funkstiya qiymat qaytarishi yoki return operatori yordamida ob'ekt qaytarishi mumkin. Bu operator funkstiya ishini tugatadi va qaytarilishi lozim bo'lgan qiymatni chaqirilgan bosh dasturga qaytaradi.

Bu fikrlarni mustahkamlash maqsadida 2 sonning yig'indisini hisoblashga doir quyidagi misolni keltirib o'taylik.

#### Misol-6.4. Qiymat qaytaruvchi funkstiya

```
<html>
<head>
<title> Qiymat qaytaruvchi funkstiya </title>
</head>
<body>
<?php
function addNums ($firstnum, $secondnum);
{
    result=$firstnum+$secondnum);
}
print addNums(3,5); // natija 8 chikadi
?>
</body>
</html>
```

Bu dasturning bajarilishi natijasida brauzerda 8 chop qilinadi. Chunki addNums() funkstiyasining argumentlari 3 va 5 qiymatlarni qabul qiladi. Avvalroq aylib o'tilganidek, dasturni yanada ixchamroq ko'rinishga keltirish mumkin. U holda funkstiyaning o'zagi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

```

{
return ($firstnum+#secondnum);
}

return operatori qiymat, ob'ekt qaytarishi yoki hech narsa qaytarmasligi ham
mumkin. Return operatori yordamida qiymat qaytarishning bir necha usullari mavjud
bo'lib ular:
return4;           - o'zgarmas;
return($a/$b);    - ifoda yoki
return(function($argument)) - bo'lishi mumkin.

```

Funkstiyalarga dinamik murojaat qilish

Funkstiya nomini biror matnli tipga ega bo'lgan o'zgaruvchiga o'zlashtirish mumkin, hamda xuddi shu o'zgaruvchiga funkstiya murojaat qilgandek ishlash mumkin. Fikrimizni yanada aniqroq tasavvur qilish uchun esa, quyidagi misolni keltirib o'taylik:

Misol-6.5

```

<html>
<head>
<title> Funkstiyalarga dinamik murojaat</title>
</head>
<body>
<?php
function sayHello( );
{
    print "Hello <br>";
}
$function_holder="sayHello";
$function_holder();
?>
</body>
</html>

```

Bu erda \$function-holder o'zgaruvchisi matnli tipga ega va u Sayhello() funkstiyasi nomini o'zlashtiradi. Keyin esa, xuddi shu funkstiyaga murojaat qilgandek \$function-holder() ga murojaat qilish mumkin.

Albatta, tabiiy savol tug'iladi: «Funkstiyaga murojaat qilishning bu usulidan nima naf bor?». Bu misolda ortiqcha ish bajarildi. Lekin boshqa katta dasturlarda bu usulning yutug'i katta bo'ladi. Masalan, foydalanuvchi talabiga asosan dastur holatini o'zgartirishga to'g'ri keladi. Shunda qatorli parametr (o'zgaruvchiga) o'zlashtirilgan funkstiya nomi bo'yicha o'zgartirish mumkin.

7-ma'ruza. Massivlar. Bir va ko'p o'lchovli massivlar.

Massiv va uning mexanizmidan foydalanish PHP dasturlash tilining unumdorligi va samaradorligini yanada oshiradi. Massiv bilan ishlashda murakkab strukturaga ega ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.

Bu mavzuni o'zlashtirish davomida massivlar va ularni qayta ishlovchi ba'zi bir funkstiyalar bilan tanishib chiqiladi. Bu mavzuda asosan quyidagilar o'rganiladi:

Massiv nima va ularni qanday yaratiladi?

Massiv elementiga qanday murojat kilinadi?

Massivdagi ma'lumotlar qanday saralanadi?

Massiv nima?

O'zgaruvchi nima ekanligi bizga ma'lum. O'zgaruvchi asosida ma'lumotni saqlash, qayta ishlash va chop qilish mumkin. Lekin o'zgaruvchida bir vaqtning o'zida faqat bitta ma'lumot saqlash mumkin. Shunday o'zgaruvchilar mavjudki, dasturchini bunday chegaralanishlardan ozod qila oladi. Massiv xuddi shunday imkoniyatga ega bulib, u bir nomda bir necha ma'lumotni, xattoki katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zida saqlab tura oladi. Massivdagi har bir qiymat esa alohida raqam yoki matnni qator yordamida ko'rsatiladi.

Yangi termin. Massiv – bu bitta nomda saqlanuvchi qiymatlar to'plami. Bu qiymatlarning har biriga uning indeks nomeri orqali yoki matnni qatori orqali murojaat qilish mumkin.

Agar 5 ta qiymatdan foydalanmoqchi bo'linsa, unga mos yana 5 ta o'zgaruvchi ham yarata olinadiku. Unda massivni nima zarurati bor? Massiv birinchi o'rinda ixchamlik uchun zarur. Ikkinchidan, dasturchini xohishiga qarab ikkita yoki minglab qiymatlarni yangi o'zgaruvchilarni yaratmay saqlay olish mumkin. Uchinchidan esa, ularni stikl asosida qurish, ixtiyoriy qiymatni tanlash, alfavit bo'yicha saralash hatto dasturchi xohlaganday saralab olib foydalana olish mumkin. Massivning har bir elementiga uning indeksi asosida murojaat qilinadi. Indeks massiv nomeri yoki matnli qator bo'lishi mumkin.

Massiv elementi raqam bo'yicha ko'rsatiladi va u noldan boshlanadi. Shuning uchun unutmaslik lozimki, massivning oxirgi element nomeri massivdagi elementlar (qiymatlar) sonidan bitta kam bo'ladi. Masalan, quyidagi jadvalda users massivining 4 ta elementi keltirilgan. Bunda uchinchi element indeksi 2 ga teng bo'ladi .

#### Users massivi

indeks	qiymati
0	Bort
1	Sharon
2	Batty
3	Harry

Matnli qator yordamida massiv elementini ko'rsatish asosan, bir vaqtning o'zida qiymat va kattalik nomi saqlanayotganda qulay bo'ladi.

PHP tilida nom va nomeri bo'yicha elementlarni ko'rsatish va ishlash uchun massivni murakkabrok shakllari mavjud. Bular haqida keyingi mavzularda batafsil to'xtalib o'tiladi.

### Massivlarni yaratish

Oddiy holatda massiv – bu nomerlangan tartib bo'yicha joylashgan qiymatlar ro'yxati. Qiymatlar massiv elementlariga to'g'ridan-to'g'ri yoki array() funkstiyasi yordamida o'zlashtirilishi mumkin. Bu usullarning ikkalasi bilan ham tanishib chikaylik.

array() funkstiyasi yordamida massivni aniqlash

array() funkstiyasidan massiv elementiga birdaniga bir necha qiymatlarni o'zlashtirishda foydalanish mumkin. Masalan,

\$users=array ("Xamid", "Sobir", "Botir", "Nosir");

Endi uning nomeri bo'yicha massiv elementiga murojaat qilamiz:

```
print "$users[2];"
```

Natijada esa, brauzer oynasiga "Botir" yozuvi beriladi. Massivlar bilan ishlashda massiv indeksi noldan boshlanishini esdan chiqarmaslik lozim.

### Identifikator yordamida massiv elementlarini yaratish

Massiv identifikatori yordamida yangi massiv yaratish yoki mavjud massivga yangi element qo'shish imkoniyati mavjud. Buning uchun massiv nomi va [] qavslarni berish lozim. Mustahkamlash uchun yana bir marta shu usul bilan \$users massivini yaratamiz:

```
$users[] = "Bert";
```

```
$users[] = "Sharon";
```

```
$users[] = "Betty";
```

```
$users[] = "Harry";
```

Bu erda [] ichida element indekslari beriladi. PHP esa, avtomatik ravishda ularni sanab keyingi element nomeri bo'lishini aniqlab qo'yadi.

Dasturchi elementlar nomerini ko'rsatishi ham mumkin, faqat bu juda ham ehtiyyotkorlikni talab qiladi. Quyidagi misolni ko'raylik:

```
$users[0] = "Bert"; $users[200] = "Sharon";
```

massivda faqat ikkita element mavjud, lekin oxirgi nomer 200 ga teng. Massivni oradagi elementlar hozircha yo'q. Massiv yaratilgandan o'esa, unga yangi elementlarni qo'shish mumkin.

Quyidagi misolda esa, array() funkstiyasi yordamida massiv yaratiladi va unga yangi element qo'shiladi:

```
$users = array ("Xalil", "Komil", "Soxib", "Toxir");
```

```
$users = "Sobit";
```

### Strukturali (assostirovanniy) massiv

Massiv elementiga nomeri bo'yicha murojaat qilish ya'ni, qanday yaratilgan bo'lsa shundayligicha foydalanish oson bo'ladi. Ba'zan massiv elementiga uning nomi bo'yicha murojaat qilishga ham to'g'ri keladi. Strukturali massivlarda element nomeri bo'yicha emas, balki nomi bo'yicha ko'rsatiladi.

Yangi termin. Strukturali massiv – bu massivni, uning elementiga nomi bo'yicha murojaat qilish mumkin. Boshqa dasturlash tillarida ham bu massivni struktura deb ataladi.

Strukturali massivni ham to'g'ridan-to'g'ri yoki array() funkstiyasi yordamida yaratish imkonи mavjud. PHP tilida bu massivlarni (strukturali va oddiy massivlar) alohida katta farqqa ega emas. Faqat ularga murojaat qilish boshqacharoq va ular bir-biridan farqli ularoq usul talab qiladi.

array() funkstiyai yordamida strukturali massivni yaratish

array() funkstiyasi yordamida strukturali massivni yaratish uchun har bir element nomi va qiymatini berish lozim. Buni quyidagi misolda ko'rib o'tamiz. Unda 4 ta elementdan iborat \$character nomli strukturali massiv yaratilsin:

\$ character=array(

```
    Name=> "Bob",
    occupation=> "Superhero",
    age=>30,
    "special power"=> "x-ray vision"
)
```

Endi massivning ixtiyoriy elementiga murojaat qilish mumkin;

Print \$character[age];

Massiv elementi nomi - bu qatorlar bo'lib, agar bir nechta so'zdan iborat bo'lmasa, ularni qo'shtirnoq ichiga olish shart emas.

Strukturali massivni to'g'ridan-to'g'ri yaratish

Yangi massiv yaratish yoki massivga nom va qiymat qo'shish uchun nomi bo'yicha massivni ko'rsatib, shu elementga qiymatni o'zlashtirish lozim. Masalan, yana bir \$character massiv yarataylik

```
$character[name]= "Bob",
$character[occupation]= "Superhero",
$character[age]=30,
$character["special power"]= "x-ray vision"
```

Ko'p o'lchovli massivlar

Ma'lumki, massiv elementlari biror qiymatga ega bo'lishi mumkinligini avvalgi mavzuda qarab o'tildi. Masalan, yuqorida misolda uchta element qator va bitta element butun sondan iborat. Massivlar ba'zan murakkabroq ko'rinishga ega bo'lishi ham mumkin. Massivlar qiymatlardan, ob'ektlardan yoki hatto massivlarni o'zidan ham tashkil topgan bo'lishi mumkin. Ko'p o'lchovli massivlar aslida massivlardan tashkil topgan bo'ladi. Ularning har bir elementi massivdan iborat bo'ladi. Masalan, birinchi massivning ikkinchi elementiga murojaat qilish uchun uni quyidagicha yozish lozim bo'ladi:

\$array[1][2] Yangi termin. Ko'p o'lchovli massiv bu - har bir elementi massiv hisoblangan massivdir.

Ko'p o'lchovli massivlardan foydalanish malumotlarni murakkab strukturasini yaratish imkonini beradi. Masalan, har bir elementi strukturali massiv hisoblangan massiv yarataylik.

Misol 7.1.o'o'

```
<html>
<head>
<title> Ko'p o'lchovli massiv yaratish </title>
</head>
<body>
```

```

<?php
$characters=array(array(name=>"bob",
occupation=>"superhero",
age=>30,
speciality=>"x-ray vision"),
array(name=>"sally",
occupation=>"superhero",
age=>24,
speciality=>"superhuman strangth"),
array(name=>"mary",
occupation=>"arch villain",
age=>63,
speciality=>"nanotechnology")
);
print $characters[0][occupation];
// prints "superhero"
?>
</body>
</html>

```

Agar misolga ahamiyat bersangiz, array() massivi ichma –ich ishlatalmoqda. Chunki, birinchi massiv yaratildi, keyin esa, xuddi shu massiv ichidagi element uchun ham ichki massiv yaratildi, so'ng xuddi shu massiv ichidagi element uchun ham ichki massiv yaratiladi.

U holda \$character [2][name] massiv foydalanuvchiga «mary» natijani, \$character[2][age] esa, 63 natijani kaytaradi.

Bu dasturni mantiqiy tahlil qilib, aytish mumkinki, oddiy, strukturali yoki murakkab kombinastiyali massivlarni yaratish imkonini mavjud.

**8-ma’ruza. Massivlar.** Massivlar bilan ishslash Massivlar ustida amallar.

Avvalgi mavzuda massivlarni yaratish usullari va mavjud massivga element qo'yishni ko'rib chiqildi. Endi esa, massiv xaqida ma'lumot olish va uning elementiga murojaat qilish uchun PHPning qo'shimcha imkoniyatlari bilan tanishamiz.

**Massiv hajmini aniqlash**

Massivning ixtiyoriy elementiga uning nomeri asosida murojaat qilish mumkin: print \$user[4]. Lekin massivlar bilan ishslash mexanizmi o'ta ixcham bo'lib, ba'zan massiv elementi nechtaligini ham unutib qo'yish mumkin. Xuddi shunday vaqtida count() funkstiyasi yordam beradi. Bu funkstiya massiv elementlar soni nechtaligini aniqlab beradi. Quyidagi misolda massivning oxirgi elementiga murojaat qilish uchun shu funkstiyadan foydalilaniladi:

```
$user=array("Bert","Sharon","Betty","Harry"); print $users[cout($users)-1];
Agar keltirib o'tilgan buyruqqa ahamiyat bersangiz, element nomeridan birini ayirilyapti, chunki massiv elementlari noldan boshlab sanaladi. Ya'ni indeks nomeri elementlar soniga teng emas.
```

Цикл yordamida massivni ko'rish

Циклда массивнинг барча элементларини ко'ршивнинг жуда ham ко'плаб усуллари mavjud. Мавзуда бу усуллардан кенгроқ таржалган foreach инструктиясини ко'риб о'tamiz. Бу инструктия PHP тилини 4-versiyasida paydo bo'lган.

Агар индексли массивга ега bo'lsak, у holda foreach инструктиядан quyidagicha foydalanish mumkin:

Foreach (\$array as \$ tmp)

```
{  
//...  
}
```

бу ерда \$array - массив номи, \$tmp - гар бир элементнинг qiymati vaqtincha saqlanadigan o'zgaruvchi.

Misol 8.1. Massiv elemenlarini qo'shish dasturida quyidagicha bajariladi:

```
$users=array("Bert", "Sharon", "Betty", "Harry");
```

```
foreach ($users as $val)
```

```
{  
print "$val<br>";  
}
```

Bu dasturda массив элементлари vaqtincha \$ tmp o'zgaruvchisiga o'zlashtiriladi va brauzer oynasiga chop qilinadi.

Strukturali massivni stiklda ko'rish

Strukturali массивни стиклда ko'rish учун , foreach инструктиясини бироз boshqacharoq usulda keltiriladi. Bu hol инструктия quyidagicha beriladi:

Foreach(\$ array as \$ key=>\$ value)

```
{  
//...  
}
```

бу ерда \$array – массив номи, \$key- массивнинг гар бир элементи номи saqlanadigan o'zgaruvchi, \$value - гар бир элемент qiymati vaqtincha saqlanadigan o'zgaruvchi. Fikrlarni yanada mustahkamlash maqsadida quyidagi strukturali массивни ko'rish dasturini ko'rib o'taylik.

Misol 8.2.o'

```
<html>  
<head>  
<title> Strukturali massivni kurish </title>  
</head>  
<body>  
<?php  
$character=array(name=>"bob",  
occupation=>"superhero",  
age=>30,  
"special power"=>"x-ray vision"  
);  
foreach($character as $key=>val)  
{
```

```

print $key=$val<br>;
}
?>
</body>
</html>

```

Dasturni ishlatish natijasida esa quyidagi natijani olamiz:

```

Notice: Use of undefined constant name - assumed 'name' in c:\appserv\www\php\as1.php on line 7
Notice: Use of undefined constant "bob" - assumed ""bob"" in c:\appserv\www\php\as1.php on line 7
Notice: Use of undefined constant occupation - assumed 'occupation' in c:\appserv\www\php\as1.php on line 8
Notice: Use of undefined constant "superhero" - assumed ""superhero"" in c:\appserv\www\php\as1.php on line 8
Notice: Use of undefined constant age - assumed 'age' in c:\appserv\www\php\as1.php on line 9
name = "bob";
occupation = "superhero";
age = 30

```

Rasm 8.1. Dasturdan olingan natija.

Ko'p o'lchovli massivlarni bruzerga chop qilish.

Endi ko'p o'lchovli massivlarni yuqorida keltirib o'tilgan usullar bilan brauzer oynasiga chop qilish mumkin. 7.1-misolda keltirilgan dasturdagi massiv natijasini quyidagi misol yordamida chop qilaylik:

Misol 8.3.o'

```

<html>
<head>
<title> Ko'p o'lchovli massivni stiklda ko'rish </title>
</head>
<body>
<?php
$characters=array(array(name=>"bob",
occupation=>"superhero",
age=>30,
speciality=>"x-ray vision"),
array(name=>"sally",
occupation=>"superhero",
age=>24,
speciality=>"superhuman strangth"),
array(name=>"mary",
occupation=>"arch villain",
age=>63,
speciality=>"nanotechnology")
);
foreach($characters as $val)
{

```

```

foreach($val as $key=>final_val)
{
    print "$key:$final_val"
}
print "<br>";
}
?>
</body>
</html>

```

Bu dasturdan 2 ta foreach stiklini tashkil qilinadi. Tashqi stikl nomeri bo'yicha saralangan \$users massiv elementlarini ajratadi. Bunda har bir element qiymati \$val o'zgaruvchisiga olinadi. Bu o'zgaruvchiga olingan har bir elementning o'zi ham massiv hisoblanadi va uni stiklda ko'rish mumkin. Ichki tashkil etilgan foreach stikli esa har bir element nomi va qiymatini \$key va \$final\_val o'zgaruvchilarga oladi.

Dastur biz hohlagandek ishlashi uchun \$val o'zgaruvchisi doimo massiv bo'lishi lozim. Dasturini yanada yaxshiroq bo'lishi uchun argument massiv bo'lsa true aks holda false qiymat qaytaruvchi is\_array() funkstiyasidan foydalanish lozim.

Endi massiv qiymatlarini saqlash va uning elementiga murojaat qilishni bilamiz, lekin PHP tilida bundan ham yaxshiroq imkoniyatlar mavjud.

**Array\_merge()** funkstiyasi bilan massivlarni bog'lash  
Array\_merge() funkstiyasi bir necha massiv argumentlarini qabul qiladi va ularni bog'langanligi haqidagi natijani qaytaradi. Quyidagi misolda 2 ta massiv tashkil etib, 2-massivni birinchi massivga bog'laymiz va bu bog'lanish natijasini stiklda ko'ramiz.

```

$first=array ("a", "b", "c");
$second=array("1", "2", "3");
$third=array_merge($first,$second);
foreach ($third as $ val)
{
    print "$ val<br>";
}

```

\$third massivda \$first va \$second massivdagi barcha elementlarning nusxasi olinadi. Foreach stikl bu elementlarning hammasini <br> tegi bilan ajratib chop qilib beradi. Bunda berilgan massivdagi ma'lumotlar o'zgarib ketmaydi. Lekin array\_merge() funkstiyasi PHP tilini 4-versiyasidan boshlab ishlatalishi mumkin. **Array\_push()** funkstiyasi yordamida massivga element qo'shish

Array\_push() funkstiyasi massiv argumenti va shu massivga bog'lanayotgan argumentlar uchun bir nechta parametrlarni oladi. Bu funkstiyaning boshqa funkstiyalardan farqi, birinchi argumentni massiv sifatida oladi. Array\_push() funkstiyasi natijaviy massivdagi elementlar sonini qaytaradi. Keltirilgan fikrlarni mustahkamlash maqsadida quyidagi misol yordamida massiv yaratamiz va unga bir necha element qo'shamiz.

```

$first=array("a", "b", "c");
$total= array_push ($first,1,2,3);

```

Bu erda array\_push() funkstiyasi natijaviy massivdagi elementlar sonini qaytaradi. Endi \$first massividagi elementlarga array\_push() funkstiyasi yordamida berilgan 3 ta butun sonlar ham qo'shiladi. Bu barcha elementlarni foreach stikli yordamida brauzer oynasiga chop qilinadi.

Agar dasturga ahamiyat berilsa, \$first o'zgaruvchisidan oldin “” belgisi qo'yilgan. Bu belgini qo'yilmasa PHP qator emas, balki \$first o'zgaruvchi qiymatini qaytarishi mumkin. Bu belgini ishlatishni maksimallashtirish deb ataladi.

Array\_shift() funkstiyasi yordamida birinchi elementni o'chirish

Array\_shift() funkstiyasi berilgan massivning birinchi elementini o'chiradi va shu o'chirilgan elementni qaytaradi. Quyidagi misolda ushbu funkstiyani stiklda qo'llaniladi. Bunda massivda biror element qolganligini count() funkstiyasi yordamida tekshirib turamiz.

```
<?php  
$an_array=array ("a","b","c");  
while (count($an_array))  
{  
$val=array_shift($an_array);  
print "$val<br>";  
print "\$an_array massivda". Count ($an_array).  
"element bor <br>";  
?>
```

Bu dasturning natijasi quyidagi rasmda keltirilgan. Bu array\_shift() funkstiyasi ham PHP tilining 4-versiyasida paydo bo'lган.

rasm

Array\_slice() funkstiyasi yordamida massiv qismini ajratish

Array\_slice() funkstiyasi yordamida massiv qismini ajratish mumkin. Buning uchun massiv nomi, ajratilayotgan qismning birinchi (boshlang'ich) pozitsiyasi va shart bo'limgan argumentning oxirgi pozitsiya beriladi. Agar ikkinchi argument berilmasa, u holda ajratilayotgan qism massiv oxirigacha deb tushuniladi. Array\_slice() funkstiyasi mavjud massivni o'zgartirmaydi va ajratilgan qismdan iborat yangi massiv qaytaradi.

Quyidagi misolda massiv yaratamiz va undan 3 ta elementdan iborat yangi massiv ajratamiz.

```
$ first=array ("a", "b", "c", "d", "e", "f");  
$ second=array_slice ($first,2,4);  
foreach ($ first as $ val)  
{  
print "$ val <br>";  
}
```

Natija sifatida esa, “s”, “d”, “e” dan iborat 3 ta element beriladi. Agar array\_slice() funkstiyaning ikkinchi argumentiga qiymat berilmasa, elementlar soni berilgan massivning oxirigacha deb tushuniladi. Array\_slice() funkstiyasi ham PHP tilining 4-versiyasida paydo bo'lган. Massivlarni saralash

Massivlarni saralash - bu massivlar bilan ishslashning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Buning uchun PHP tilida bir necha funkstiyalar mavjud bo'lib, ular

oddiy va strukturali massivlarni saralash imkonini beradi. Sort() funkstiyasi yordamida oddiy massivni saralash.

Sort() funkstiyasi 1 ta argument qabul qiladi va uni alfavit bo'yicha saralaydi. Agar uning elementlari sonlardan iborat bo'lsa, tartib bo'yicha saralaydi. Bu funkstiya berilgan massivni qayta ishlaydi va hech narsa qaytarmaydi. Masalan, quyidagi misol yordamida 1 ta simvoldan iborat qatorli massiv yaratamiz hamda uni saralaymiz va natijani brauzerga chop qilamiz.

```
$ an_array=array ("x", "a", "f", "c");
sort ($ an_array);
foreach ($ an_array as $ var )
{
print "$ var <br>";
}
```

Sort() funkstiyasiga strukturali massiv berilmasligi lozim. Aks holda massiv to'g'ri saralansada, massivdagi hamma nomlar yo'qolib o'rniga sonlar yozilib qoladi.

Oddiy massivlarni teskari tartibda saralash ham mumkin. Buning uchun sort() funkstiyasi kabi foydalanuvchi rsort () funkstiyasi qo'llaniladi. asort () funkstiyasi yordamida strukturali massivni saralash

asort() funkstiyasi strukturali massiv argumentini oladi va sort() funkstiyasi kabi uni saralaydi lekin maydon nomini o'chirmaydi  
\$first=array ("first"=>5, "second"=>2, "third"=>1) ;
asort (\$first);
foreach (\$first as \$ key=>\$ val)
{
print "\$key=\$ val<br>";
}

Bunday massivni teskari tartibda saralash uchun huddi shunday tartibda ishlovchi arsort() funkstiyasidan foydalanish lozim.

ksort () funkstiyasi yordamida strukturali massivni nomi bo'yicha saralash

ksort() funkstiyasi strukturali massiv argumentini oladi va uni maydon nomi bo'yicha saralaydi. U saralanayotgan massivni oladi lekin qiymat qaytarmaydi. Masalan:

```
$first=array ("x"=>5, "a"=>2, "f"=>1) ;
ksort ($first);
foreach ( $first as $ key=>$ val)
{
print "$ key=$ val <br>" ;
```

Massivni teskari tartibda saralash uchun shunday tartibda ishlovchi krsort() funkstiyasidan foydalanish lozim.

Xulosa

Demak, bu mavzuda massiv nima va u bilan ishlovchi PHPning ko'plab funkstiyalari bilan tanishildi. Shuningdek, elementlari o'z nomi bilan aniqlanuvchi strukturali massivlar va oddiy massivlarni yaratishni, hamda maxsus fukstiyalar yordamida massiv qismlarini ajratish va mavjud massivga element qo'shishni o'rganildi.

Nihoyat, massivni sralash nima va buning uchun PHPda qanday funkstiyalar mavjudligini o'rganildi.

Savollar.

Massiv yaratish uchun qanday funkstiyalardan foydalanish mumkin?

Quyidagi massivda oxirgi elementning indeksi nechaga teng? \$users=array("H", "B", "S");

Massivdagi elementlar sonini qanday aniqlash mumkin?

Massivning barcha elementlarini qanday ko'rish mumkin?

Ikkita massivni qo'shish uchun qanday funkstiyadan foydalaniadi?

Strukturali massivni nomi bo'yicha qanday saralash mumkin.

9-ma'ruza. Ob'ektlarni yaratish. Klass (Sinf)lar. Avlod qoldirish.

Ob'ektlar dastur ta'minoti o'ziga xos bo'lgan murakkabliklarga ega. Shuningdek, PHP tili ham ob'ektlar dastur ta'minotining ba'zi-bir elementlaridan holi emas.

Bu mavzuda PHPning ba'zi-bir ob'ektlar xususiyatlarini ko'rib o'tamiz va ularni aniq bir dasturlarda qo'llab o'tamiz. Bunda asosan quyidagilarni o'rganamiz:

ob'ekt va klasslar nima;

klasslar qanday yaratiladi va ularning avlod koldiruvqchi xususiyatlari; murakkab proektlar bilan ishlashda ob'ektlar - dastur ta'minoti qanday yordam berish mumkin.

Ob'ekt nima?

Ob'ekt - bu klass deb nomlanuvchi maxsus qolip bo'yicha yaratilgan yopik turdag'i o'zgaruvchi va funkstiyalar to'plami. Ob'ektlar dasturda ishlatiluvchi o'zining katta qismdagi ichki qurilmalariga ega. Ob'ektdan foydalanib asosiy dastur komanda berish yoki biror ma'lumotni olish bilan bog'liq qulay interfeysga ega bo'linadi va interfeys metod deb nomlanuvchi maxsus funkstiyalar ko'rinishiga ega bo'ladi.

Ob'ekt metodlari ob'ekt ko'rinishiga ega bo'ladi. Ob'ekt metodlari ob'ekt xususiyati deb nomlanuvchi shu ob'ektning o'zgaruvchilariga murojaat qila oladi.

Klassni aniqlashda tavsiflar to'plami beriladi, shu ob'ekt klassini yaratishda har bir tavsiflarni o'zagi (asosi) yaratiladi. Har bir ob'ektning tavsif ma'nosi turiga bo'lish mumkin. Masalan, biz avtomobil sinfi(klass)ni yaratishimiz mumkin. Bu sinf avtomobil rangi kabi tavsifga ega, lekin ba'zi avtomobillarning rangi ko'k, ba'zilari yashil va x.k bo'ladi.

Yangi termin. Klass(sinf) – bu xususiyat deb nomlanuvchi maxsus funkstiyalar to'plamidan iborat. Sinflar Class kalit so'zi yordamida yaratiladi. Sinflar - bu ob'ektlarga asos sifatida yaratiladigan shablon hisoblanadi. Ko'pincha ob'ektlarni sinfning ma'lum ma'nodagi nusxasi ham deb ataladi. Ob'ekt new operatori yordamida yaratiladi. Ob'ekt yaratilgandan so'ng, uning xususiyat va metodlariga murojaat kilishimiz mumkin.

Ob'ektga mo'ljallangan dasturlashning eng asosiy yutuq tomoni dastur qismlarini qayta ishlatish mumkin. Yaratayotgan ob'ektimiz yozilayotgan sinf dasturning boshqa qismlariga bog'liq bo'lmaydi. Bu esa, bitta proektni yozib boshqasiga o'tishini osonlashtiradi. Bularidan tashqari yana bir yutuq tomoni, mavjud sinflar asosida yangi sinflarni yaratish mumkin. Yangi sinflarni bunday usulda yaratish bizga etarlicha murakkablikka ega dasturlarni yaratish imkonini beradi.

## Ob'ektlarni yaratish

Ob'ekt yaratish uchun avvvlo bu ob'ekt kaysi sinf asosida yaratilishini ko'rsatish lozim. PHP4 tilida sinfni e'lon qilish uchun class kalit suzidan foydalaniladi.

class first\_class

```
{  
// eng oddiy sinf  
}
```

first\_class sinfi, bu shablon asosida xoxlaganimizcha ob'ekt yaratishimiz mumkin. Ob'ektlar esa, new kalit suzi yordamida yaratiladi.

```
$ obj1=new first_class();
```

```
$ obj2=new first_class();
```

```
print “$obj1-ob'ekt tipi”.gettype($obj1). “<br>”
```

```
print “$obj2-ob'ekt tipi”.gettype($obj2). “<br>”
```

\$ obj1 va \$obj2 o'zgaruvchi tiplarini gettype() funkstiysi yordamida tekshirish mumkin. Bu funkstiya ixtiyoriy argumentni oladi va uni tipini kaytaradi.

Uzgaruvchilari nazorat kilinmaydigan tillarda bunday funkstiya turli o'zgaruvchiga ega funkstiylar bilan ishslashda juda ham katta yordam beradi. Yukorida keltirilgan misolda gettype() funkstiysi brouzer oynasiga “object” yozuvini chikaradi. Sinf shunday kolipki, unda juda ham kuplab ob'eklarni mujassamlashtirish,yaratish mumkin.

## Ob'ekt xususiyatlari

Ob'ektning holati ob'ekt xususiyati deb nomlanuvchi o'zgaruvchilardan aniqlanadi. Bu o'zgaruvchilar sinfining ixtiyoriy joyida e'lon kilinishimumkin, lekin tushunarli bulishi uchun boshlanishida e'lon kilinadi. Xususiyat qiymati son, massiv yoki ob'ekt bulishi ham mumkin.

Class first\_class

```
{
```

```
var $name = “harry”;
```

```
}
```

```
$obj1=new first_class();
```

```
$obj2=new first_class();
```

```
obj1 name = “bob” ;
```

```
print “$obj1→name <br>”
```

```
print “$obj1→name <br>”
```

→ operatori → ob'ekt xususiyatiga murojaat uchun ishlataladi.

Ko'uplab ob'ektga mo'uljallangan dasturlash tillarida, xususan Java tilida ob'ekt metodi va o'zgaruvchilarga murojaat kilishda cheklanishlar bor. PHP tilida esa, bunday cheklanishlar yuk. Ob'ekt lardan ma'lumotlarni saqlash uchun foydalanish imkoniyati bor, lekin bu strukrurali massivlar kabi unum bera olmaydi.

## Ob'ekt metodlari

Metod-bu sinf ichidagi aniqlangan funkstiya. Berilgan sinf asosida yaratilagan ob'ekt, shu sinf metodiga ham murojaat qiladi. Bu fikrlarga asos sifatida quyidagi misolni ko'raylik.

Misol 9.1. Metod asosida sinf.

```
<html>
<head>
    <title> Metodli klass</title>
</head>
<body>
<?php
class first_class
{
    var$name;
    function sayHello()
    {
        print "hello";
    }
}
$obj1=new first_class();
$obj1->sayHello();
// chop etadi"hello"
?>
</body>
</html>
```

Ko'rinib turganidek, metod oddiy funkstiyagao'uxshaydi. Farki shuki, metod sinf ichida yaratiladi. Ob'ekt metodiga → operatori yordamida murojaat qilish mumkin. Metod sinf ichidagi barcha o'zgaruvchilardan foydalanish imkoniga ega. Biz ob'ekt xususiyatiga murojaat kilishni kurdik, lekin ob'ekt uziga qanday murojaat qiladi?. Bu savolga javobni quyidagi misoldan topamiz.

Misol 9.2. Metoddan xususiyatlarga murojaat.

```
<html>
<head>
    <title> 8.1 listing metoddan xususiyatlarga murojat </title>
</head>
<body>
<?php
class first_class
{
    var $name="harry";
    function sayHello()
    {
        print "hello my name is $this->name<BR>";
    }
}
```

```

$obj1=new first_class();
$obj1->sayHello();
// "hello my name is harry" ni chop etadi
?>
</body>
</html>

```

Sinf maxsus o'zgaruvchi bulib, u mavjud ob'ektga shu sinfni kursatadi. Xatto uzimiz uzlashtirgan nom bo'yicha ob'ektga murojaat kilishimiz mumkin, masalan \$obj1. lekin ob'ekt maxsus this kursatmasi (ukazatel) orqali uziga murojaat kilishi mumkin.

Bu nomni -> operatori bilan ishlatib, shu sinf mavjud ixtiyoriy ob'ekt xususiyatiga murojaat qilish mumkin.

Aytaylik, har bir ob'ektning first\_class sinfidagi name xususiyatiga yangi qiymat o'zlashtirish lozim. U holda avval bajarganimiz kabi, har bir ob'ekt uchun oshkor bajarish yoki buning uchun maxsus metod yaratish mumkin. Metod asosida xususiyat qiymatini uzgaro'tirishga quyidagi quyidagi misolni ko'raylik.

Misol 9.3. Metodda xususiyat qiymatini o'zgartirish

```

<html>
<head>
    <title>8.3 misol. Metodda xususiyat qiymatini uzgaro'tirish </title>
</head>
<body>
<?php
class first_class
{
    var$name="harry";
    function setName( $n)
    {
        $this->name=$n;
    }
    function sayHello()
    {
        print "hello my name is $this->name<BR>";
    }
}

$obj1=new first_class();
$obj1->setName("william");
?>
</body>
</html>

```

Boshlanishida name xususiyati "harry" qatorigaega edi, lekin SetName() metodi ishlangandan sung o'bu qator "William"ga almashdi. Bu erda xatto ob'ekt ham uz o'xususiyatini uzgaro'tirishi mumkin.

Biz bu erda zarur bir narsani unutdik. Agar biz sinf nomi bilan bir xil metod yaratsak, har safar ob'ekt yaratilayotganda avtomatik ravishda bu metod chakiriladi. Bunday maxsus metodlar konstruktor deb ataladi. Quyidagi misolda first\_class sinfiga konstruktor kushamiz.

#### Misol 9.4. Konstruktorli klass

```
<html>
<head>
    <title> 8.4 listing Konstruktorli klass</title>
</head>
<body>
<?php
class first_class
{
    var$name;
    function first_class($n="anon")
    {
        $this->name=$n
    }
    function sayHello()
    {
        print "hello my name is $this->name<BR>";
    }
}
$obj1=new first_class("bob");
$obj2=new first_class("harry");
$obj1->sayHello();
// "hello my name is harry" ni chop etadi
$obj1->sayHello();
// "hello my name is harry" ni chop etadi
?>
</body>
</html>
```

first\_class () konstruktori har safar ob'ektda first\_class () sinfi yaratilayotganda avtomatik ravishda chakiriladi. Bu misolda, agar argument ko'rsatilmasa yangi ob'ektning name xususiyati “anon” ga ega bo'ladi.

Masalan, yuqoridagi fikrlarimizni asoslash maqsadida, har bir ustuni uz o'nomiga ega bulgan jadvaldan iborat sinf yaratamiz. Keyin esa, brauzer oynasiga ma'lumot chikarish imkonini beruvchi oddiy metodni shu sinfga kushamiz. Xozirga shuni uzi bizga etarli bulsin.

12-ma'ruza. MySQL misoldida ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanish. ma'lumotlarni qo'shish va qayta ishslash. (4 soat)

PHP tilining eng ajoyib tomonlaridan biri, dasturchi ma'lumotlar bazasi bilan ishslashda juda ham ko'plab qulayliklarga ega bo'ladi. Bu ma'ruza davomida biz asosan MySQL sistemasi haqida fikr yuritamiz. Lekin, albatta PHPning boshqa ma'lumotlar bazasi asosida ishlovchi sistemalar bilan aloqasini ham biroz bo'lsada ko'rib o'tamiz. «Nima uchun aynan PHP bilan MySQL o'rtasida o'zaro aloqani o'rganishimiz lozim. Boshqa sistemalar ham mavjudku?» -degan savol tu'ilishi tabiiy albatta. Chunki, bu sistema ma'lumolarni boshqarish sistemasi hisoblanib, u PHPning eng asosiy manbasi hisoblanadi, hamda bu sistema bepul tarqatiladi va foydalanishga hamda o'rganishga juda ham qulay hisoblanadi. Bulardan tashqari MySQL baza bilan ishlovchi sistemani juda ham ko'plab platformalari mavjud. Agar bu sistema kompyuterimizda mavjud bo'lmasa, biz uni <http://www.mysql.org>. tarmog'idan olishimiz mumkin. Mavzuni o'zlashtirish davomida esa, asosan quyidagilarni o'rganamiz:

MySQL serveriga qanday bog'lanish;  
Ma'lumotlar bazasini qanday tanlash;  
Xatoliklarni qayta ishslash, to'g'rakash nima;  
Jadvalga ma'lumotlarni qanday qo'shiladi;  
Jadvaldan ma'lumotlarni qanday o'qiladi;  
Jadvaldagi mav'lumotlarni qanday o'zgartiriladi;  
Bazadagi ma'lumotlarning strukturasi nima.

SQL va u haqida qisqacha kirish.

Yangi termin. SQL ingliz tilidagi Structured Query Language yoki o'zbek tilidagi so'rovlar asosidagi strukturali til so'zlarining qisqartmasidan tashkil topgan. Bu til turli xildagi ma'lumotlar bazasiga murojaat qilish uchun standart imkoniyatlarga ega bo'lgan til hisoblanadi. Ko'plab bazalar bu til asosida o'zining versiyalariga ham ega. Lekin shunga qaramasdan SQL turli xil ko'rinishdagi ma'lumotlar bazalari bilan ishslash imkonini bera oladi.

Bu ma'ruzada biz SQL bilan ishslashning deyarli barcha imkoniyatlarini ko'rib o'tmasakda, asosiy tushunchalari, SQL tilining bir qismi hisoblangan MySQL ma'lumotlar bazasi bilan ishslashni o'rganamiz.

MySQL tizimi boshqa (udalenniy) kompyuterlardagi foydalanuvchilar bilan bog'lanishi mumkin bo'lgan serverga ega bo'ladi. Serverga bog'lanib biz o'zimiz uchun kerak bo'lgan bazani topishimiz va u bilan ishlay olishimiz mumkin.

Bazadagi ma'lumotlar hamisha qandaydir jadvalga ega bo'lgan ko'rinishda bo'ladi. Har bir jadval esa, ustun va qatorlardan iborat bo'lib, har bir yacheykada ma'lumotlar saqlanadi. Har bir ustunda esa, bitta tipga tegishli ma'lumotlarni yoziladi. Masalan, butun sonlar (tip INT) yoki qatorli tipdan (tip VARCHAR) iborat bo'lishi ham mumkin.

Tanlangan ma'lumotlar bazasida yangi jadval hosil qilish uchun quyidagicha SQL so'rovdan foydalanish lozim:

```
CREATE TABLE mytable (first_name VARCHAR(30), second_name  
VARCHAR(30), age INT);
```

Bu yangi jadvalda uchta ustun hosil bo'ladi yoki quyidagi nomga ega bo'lgan maydonlar hosil qilinadi: first\_name va second\_name nomli maydonlar 30 tagacha simvoldan iborat elementlarni olsa, age maydonida esa, butun sonlar saqlanadi. Bu jadvalga ma'lumot qo'shish uchun INSERT instrukstiyasidan foydalanish lozim: INSERT INTO mytable (first\_name, second\_name, age) VALUES ('John', 'Smith', 36);

Biz qo'shayotgan ma'lumotlarning maydoni nomlari birinchi qavsda, shu maydonga kiritiladigan yozuvlar esa ikkinchi qavsda beriladi.

SELECT \* FORM mytable;

Jadvaldagi barcha ma'lumotlarga murojaat qila olish uchun SELECT instrukstiyasidan foydalanish lozim.

SELECT age FROM mytable;

\* belgisi byuizga barcha maydonlar kerakligini bildiradi. Agar bizga faqat ba'zi bir maydonlar lozim bo'lsa, SELECT instrukstiyasida shu nomlarni barchasini berishimiz lozim bo'ladi.

Jadvaldagi avval yozilgan ma'lumotlarni yoki qiymatlarni o'zgartirish uchun UPDATE instrukstiyasidan foydalaniladi.

UPDATE mytable SET first\_name='Bert';

Natijada first\_name maydonining barcha yozuvlar o'zgaradi va jadvalning barcha qatorlarida Bert yozushi yoziladi. SELECT va UPDATE instrukstiyasi asosida yozilgan barcha yozuvlarni WHERE yordamida chiqarish mumkin:

SELECT \* FROM mytable WHERE first\_name='Bert';

Bu instrukstiya Bert yozilgan maydonlarning barchasini aniqlab beradi. Quyida keltirib o'tadigan misolimizda agar ikkinchi maydon second\_name da 'Baker' yozuvchi yozilgan bo'lsa, birinchi maydondagi yozuvlarni o'zgartirib beradi.

UPDATE mytable SET first\_name='Bert' WHERE second\_name="Baker";

SQL-ma'lumotlar bazasi bilan ishlashni yanada mukammalroq o'rghanish uchun «Osvoy samostoyatelno SQL za 21 den (SQL ni 21 kunda o'zing o'rghan)» nomli adabiyotdan foydalanishni maslahat beramiz.

Ma'lumotlar bazasi serveriga bog'lanish.

O'zimizning alohida ma'lumotlar bazamiz bilan ishlashimiz uchun albatta serverga bog'lanishimiz lozim. Buning uchung PHPda mysql\_connect() funkstiyasidan foydalaniladi. Bu funkstiya 3 ta argumentga ega bo'lib, ular kompyuter nomi, foydalanuvchi nomi va parol hisoblanadi. Agar bu argumentlarni tashkab yubormoqchi bo'lsak, u holda localhost kompyuter talab qilinadi. Unda foydalanuvchi nomi va uning paroli talab qilinmaydi, hamda bu kompyuterda mysqluser o'rnatilmagan bo'ladi.

Albatta, bunday bog'lanish katta ahamiyatga ega bo'lmaydi va faqat server mavjudligini aniqlab olish mumkin xolos. Shuning uchun ham kelgusida biz foydalanuvchi nomi va parolni berib ishlashga harakat qilamiz. Mysql\_connect() funkstiyasi agar barcha ishslash to'g'ri yakunlansa, bog'lanish identifikatorini

qaytaradi. Bu identifikatorni biror o'zgaruvchida kelgusida foydalanish uchun saqlab qo'yish mumkin.

Quyidagi misol ma'lumotlar bazasi serveriga bog'lanishga oid misolni keltirib o'tamiz:

```
$link=mysql_connect("localhost", "root", "nickel");
if (! $link)
```

```
    die("Couldn't connect to MySQL");
```

Agar PHP ni Apache serveri bilan birga ishlayotgan bo'lsa, serverdagi ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanish uchun mysql\_pconnect() funkstiyasidan foydalanilishi mumkin. Dasturchi nuqtai nazaridan bu funkstiyalarning vazifasi bir xil bo'lsada, lekin biroz bo'lsada farqi mavjud. Agar biz mysql\_pconnect() funkstiyasidan foydalanayotgan bo'lsak, server bilan bog'lanishda uzilish hisobiga hech narsa yo'qotilmaydi yoki mysql\_close() funkstiyasini ishlatmasak ham ortiqcha yo'qotishlar ro'y bermaydi.

## 6. Tajriba, amaliy va seminar mashg`ulotlar mazmuni

### 1-AMALIY ISH

Ishning mazmuni:	Web serverni o'rnatish. PHPda buyruqlarning yozilishi. O'zgaruvchilar va ularning turlari.
Ishning maqsadi:	Talabalarda Web serverni o'rnatish, PHPda buyruqlarning yozilishi, o'zgaruvchilar hamda ularning turlari bo'yicha amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.
Kerakli jihozlar:	Kompyuter va elektron qo'llanmalar
Amaliy ishni bajarish uchun zarur nazariy ma'lumotlar	Web serverlar haqida nazariy ma'lumotlarni bilishi. PHP tili va uning muharrirlari haqida bilishi. PHPda buyruqlarning yozilishini bilishi.


Amaliy ishni bajarish uchun kerakli

### amaliy ko'nikmalar:

topshiriq: Denwer dastrini o'rnating va ishga tushiring.

Bajarish:

Dastlab denwer dasturining o'rnatuvchi fayli (masalan, Denwer3\_Base\_2013-06-02\_xdebug.exe fayli)ni kompyuterimizga ko'chirib olamiz va uni ishga tushiramiz. Natijada quyidagi oyna paydo bo'ladi.



Enter tugmasini bosamiz. Ekranda o'rnatiluvchi fayllarning ishchi katalogini

ko'rshatish so'rovi hosil bo'ladi va C:\WebServers katalogi taklif qilinadi.

O'zgarishsiz qolishini hohlasak Enter tugmasini bosamiz. Tasdiq so'rovi paydo bo'ladi.

> Установить в директорию C:\WebServers <y/n>?

Y tugmasini bosamiz. Shundan so'ng ekranda virtual disk yaratish so'rovi paydo bo'ladi.

```

C:\WINDOWS\Temp\7zS693E.tmp\usr\local\miniperl\miniperl.exe
Введите полный путь к директории [или букву диска, если устанавливаете на флэш-накопитель]. Либо же просто нажмите Enter, чтобы принять стандартный путь - C:\WebServers.

> Имя директории или буква флэш-накопителя [C:\WebServers]: 

Установить в директорию C:\WebServers <у/н>?
Введите "у" <Да> или "н" <Нет>; н
Введите "у" <Да> или "н" <Нет>; у

* Директория для инструментария: C:\WebServers.

Теперь инсталлятор создаст отдельный виртуальный диск, который необходим для функционирования всех компонентов системы. Отдельный диск сильно упрощает работу с Web-инструментарием, позволяя устроить на машине нечто вроде "маленького Unix".

Виртуальный диск - это просто синоним для одной из директорий на вашем диске. После того как он будет создан, вся работа с виртуальным диском будет в действительности происходить с указанной вами папкой. Чтобы создать диск, необходима утилита subst, входящая в Windows.

Для продолжения нажмите Enter.

```

Enter tugmasini bosamiz natijada virtual disk belgisi so'rovi va taklif paydo bo'ladi.

```

C:\WINDOWS\Temp\7zS693E.tmp\usr\local\miniperl\miniperl.exe
* Директория для инструментария: C:\WebServers.

Теперь инсталлятор создаст отдельный виртуальный диск, который необходим для функционирования всех компонентов системы. Отдельный диск сильно упрощает работу с Web-инструментарием, позволяя устроить на машине нечто вроде "маленького Unix".

Виртуальный диск - это просто синоним для одной из директорий на вашем диске. После того как он будет создан, вся работа с виртуальным диском будет в действительности происходить с указанной вами папкой. Чтобы создать диск, необходима утилита subst, входящая в Windows.

Для продолжения нажмите Enter.

Полик утилиты subst...
Программа "subst" похожа на subst, пробуем запустить...
* Утилита subst обнаружена.

Определитесь с именем нового диска. Как оптимальный вариант предлагается диск Z: - маловероятно, что он у вас уже занят. Впрочем, вы можете ввести и любую другую букву диска, который еще не занят. Указывать существующие диски запрещено.

> Введите букву будущего виртуального диска [Z]: 

```

Shundan so'ng ma'lumotlar ko'rsatilgan katalogga ko'chiriladi va quyidagi so'rov hosi bo'ladi.

```

C:\WINDOWS\Temp\7zS693E.tmp\usr\local\miniperl\miniperl.exe
Для продолжения нажмите Enter.

Копируются файлы, ждите...
Основляем параметры конфигурации...

Денвер может запускаться в двух режимах:
1. Виртуальный диск создается ПРИ ЗАГРУЗКЕ ОС. Запуск серверов осуществляется с помощью ярлыка на Рабочем столе. При завершении работы Денвера виртуальный диск НЕ отключается.
* Этот режим рекомендуется использовать, если вы собираетесь использовать виртуальный диск, не запуская серверов (например,
* хотите запускать Perl-скрипты не только из браузера, но и из
* командной строки).
2. При загрузке ОС виртуальный диск НЕ создается. На Рабочем столе также, как и в п. 1, создаются ярлыки для запуска и останова серверов. При запуске серверов вначале создается виртуальный диск, после останова - диск отключается.
* Необходимо помнить, что в этом режиме при неактивном Денвере не будет доступа к виртуальному диску (в частности, к Perl).
* Кроме того, некоторые версии Windows не умеют правильно отключать виртуальный диск (требуется перезагрузка).

Рекомендуется выбрать вариант 1, потому что он наиболее удобен.

> Введите 1 или 2 [1]: 

```

Quyidagi takliflar beriladi:

- OT yuklanishi bilan virtual disk yaratiladi. Denver ishi yakunlangach ham virtual disk o'chirilmaydi.
  - OT yuklanishi bilan virtual disk yaratilmaydi. Denver ishga tushirilganda yaratiladi, ishi tugatilganda esa disk o'chiriladi.
- 1- variant qulayligi taklif qilinadi. 1 yoki 2 raqamini kiritib Enter tugmasini bosish mumkin. Biz OT ishga tushganda ortiqcha yuklanish bolmasligi uchun 2 ni tanlaymiz.


Ishchi stolida denver dasturi yorliqlarini yaratish so'rovi paydo bo'ladi.

```

> Создать ярлыки на Рабочем столе для запуска Денвера <у/н>?

"Y" ni kiritib Enter tugmasini bosamiz. Natijada muvaffaqiyatli o'rnatish va denver haqidagi oyna ochiladi.

```



Ish stoilida quyidagi yorliqlar paydo bo'ladi.



Denvern'i ishga tushirish.




Denvern'i qayta yuklash.



Denver ishini to'xtatish.

Start Denwer tugmasini bosib dasturni ishga tushiramiz. Ekranda ogoxlantirish oynasi (Оповещение системы безопасности Windows) paydo bo'ladi.



1.10- rasm. Ogoxlantirish oynasi

Разблокировать тугмасини босамиз ва quyidagi belgilar paydo bo'ladi.



Denwer va Apache serveri logotipi.

Dasturning odatiy ishashini tekshirish uchun mavjud brauzer masalan, GoogleChromeni ishga tushirib uning manzillar qatiriga <http://localhost> yozuvini kiraitamiz. Agar hammasi joyida bo'lsa "Ура, заработало!" matnili ma'lumot brauzer oynasida paydo bo'ladi.

Ура, заработало!

В состав Денвера не входит документация к компонентам, т.к. она слишком быстро устаревает. Вместо этого вы можете воспользоваться адаптированной формой поиска. После нажатия на Enter она сама переадресует запросы на необходимые сайты.

PHP	Поиск по документации PHP
MySQL	Поиск по документации MySQL
Apache	Поиск по документации Apache
Perl	Поиск по документации Perl
PostgreSQL	Поиск по документации PostgreSQL

**Тестирование Денвера**

Настоятельно рекомендуем проверить работоспособность сервера при помощи следующих линеек ссылок. Посмотрев результат, нажмите кнопку **Назад**, чтобы перейти к другой ссылке. Если что-то не заработало, проделайте следующие действия:

- Загляните в лог-файл сервера (/usr/local/apache/logs/error.log).
- Прочитайте [ответ на часто задаваемые вопросы](#).
- Если ответа нет в FAQ, зайдите в форум по адресу <http://forum.dcklab.ru/denver> и воспользуйтесь [поисковой системой](#) — 9 шансов из 10, что ответ на ваш вопрос уже есть в базе данных.

**Внимание** — распространенная ошибка: если работает только localhost, а другие хосты — *не работают*, пожалуйста, проверьте, выключен ли у Вас прокси-сервер (**Сервис — Свойства браузера — Подключение — Настройка сети**).

Пожалуйста, описывайте проблему как можно подробнее. Помните: каждое ваше письмо и наш ответ на него попадают в глобальный архив изменений ([CHANGELOG](#)), а потом и в FAQ. Чем более исчерпывающим будет описание проблемы, тем оперативнее придет ответ, и тем больше пользы принесет ваше письмо другим Web-разработчикам.

URL	Описание
<a href="https://sub-domain.localhost/ssl.php">https://sub-domain.localhost/ssl.php</a>	Проверка SSL
<a href="http://sub-domain.localhost/">http://sub-domain.localhost/</a>	Проверка "не-Интернет"-доменов второго уровня, а также SSL
<a href="http://test1.ru/">http://test1.ru/</a>	Проверка "Интернет"-доменов второго уровня test1.ru (значите отличите трафик-сервер!)
<a href="http://sub-domain.test1.ru/">http://sub-domain.test1.ru/</a>	Проверка "Интернет"-доменов третьего уровня
<a href="http://localhost/Tests/phpnotice/index.php">http://localhost/Tests/phpnotice/index.php</a>	Проверка перевала PHP Notice в Денвере

2-topshiriq. PHPda sodda dastur buyrug'ini yozing va ishga tushiring.

Bajarish.

PHP buyruqlari ochiluvchi – “<?php” va yopiluvchi – “?>” teglari orasida yoziladi. Masalan,

```
<html>
<head>
<title>Birinchi dastur</title>
</head>
<body>
<?php
echo "Salom, dunyo";
?>
</body>
</html>
```

Dasturni yozish uchun oddiy matn muharriridan foydalanish mumkin. Dasturchiga qulay bo'lishi uchun bir qancha PHP muxarrirlar yaratilgan. Masalan, PHPEditor, Netbeans, NotePad, Dreamweaver va boshqalar.

Bular ichidan Dreamweaver dasturidan foydalanishni ko'rib chiqamiz. Yangi hujjar yaratish darchasidan PHP bandini tanlaymiz.



## Paydo bo'lgan oynada HTML va PHP kodlarni yozish mumkin.

Macromedia Dreamweaver 8 - [Untitled-3\*] 17.04.23

File Edit View Insert Modify Text Commands Site Window Help

Insert Common Layout Forms Text HTML PHP Application Flash elements Favorites

Untitled-3\* Title: Untitled Document

```

1 <html xmlns="http://www.w3.org/1999/xhtml">
2 <head>
3 <meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=iso-8859-1" />
4 <title>Untitled Document</title>
5 </head>
6 <body>
7 <?php
8 //Bu yerda PHP kodlar yoziladi
10 ?>
11 </body>
12 </html>
13
14

```

Unga quyidagi dastur o'zgarishlarini kiritamiz. Dastur natijasida ekranga “Salom, men PHP dasturman!” degan yozuv paydo bo'lsin.

```

<html>
<head>
<meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=iso-8859-1" />
<title>Birinchi PHP dastur</title>
</head>
<body>
<?php
echo "Salom, men PHP dasturman!"
?>
</body>
</html>

```

Dasturni c:\WebServers\home\localhost\www\ papkasiga birinchi\_dastur.php nomi bilan saqlaymiz. Brauzerni ishga tushirib manzillar qatoriga [localhost/birinchi\\_dastur.php](http://localhost/birinchi_dastur.php) manzilini kiritamiz. Natijada quyidagi natija paydo bo'ladi.



Amaliy ish uchun topshiriqlar:

1. XAMPP dasturini o'rnating.

2. XAMPP dasturini ishga tushiring.
3. XAMPPni me'yorda ishlashini tekshirish uchun brauzerda "Salom, men N ning dasturiman" matnini paydo qilish dasturini tuzing. Bunda N har bir talabaning ismi va familiyasi.
4. Bajarilan ishlar bo'yicha hisobot tayyorlang.

## 2-AMALIY ISH

Ishning mazmuni: PHPda operatorlardan foydalanib sodda dasturlar tuzish (if, while, for, ?, SwitchContinue va boshqa operatorlar).

Ishning maqsadi: PHPda operatorlardan foydalanib sodda dasturlar tuzish bo'yicha amaliy malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

Kerakli jihozlar: Kompyuter, elektron qo'llanma va dasturiy jixozlar.

Amaliy ishni bajarish uchun zarur nazariy ma'lumotlar PHPda o'zgaruvchilar haqida tushunchalarga ega bo'ishi, buyruqlarini yozish strukturasini bilishi. If, while, for, Switch, Continue va boshqa operatorlarini bilishi.

Amaliy ishni bajarish uchun kerakli  
amaliy ko'nikmalar:

Tanlash operatorlari / if...else

Tanlash operatorlariga: shartli operator (if...else) va variantli tanlash operatori (switch) kiradi. SHartli operator sintaksisi: if(shart) 1-operatorlar bloki else 2-operatorlar bloki

Shart shart ixtiyoriy ifoda bo'lishi mumkin. Agar u rost bo'lsa 1-operatorlar bloki operator bajariladi. Aks xolda 2-operatorlar bloki operatori bajariladi. Shartli operator qisqa shaklida else va 2-operatorlar bloki operatori yozilmaydi.

O'z o'rnida 1-operatorlar bloki va 2-operatorlar bloki operatorlari shartli operator bo'lishi mumkin. Bu ixtiyoriy chuqurlikdagi tekshirishlar ketma ketligini xosil qilishga imkon beradi. Bu ketma ketlikda shartli operator to'la yoki qisqa shaklda bo'lishi mumkin. Shuning uchun if va else operatorlarini bir biriga mos qo'yishda xatolik kelib chiqishi mumkin. Tilning sintaksisi bo'yicha ichki joylashtirilgan shartli operatorlaprda har bir else eng yaqin if ga mos keladi.

Variantli tanlash switch

Variantli tanlash switch multitanlash tashkil qilishning eng qulay usulidir. Uning sintaksisi quyidagicha:

switch(tanlash ifodasi)

{

case 1-konstantali ifoda: operatorlar bloki; break;

case 2- konstantali ifoda: operatorlar bloki; break;

```
default: operatorlar bloki;  
}
```

Boshqaruvchi struktura switch boshqarishni case bilan belgilangan operatorlar ichida, konstantali ifodasi qiymati tanlash ifodasi qiymati bilan teng operatorga uzatadi. Agar tanlash ifodasi qiymati konstantali ifodalarning birortasiga teng bo‘lmasa default bilan belgilangan operatorga o‘tiladi. Har bir variantli tanlash operatorida bittadan ortiq default bo‘lishi mumkin emas, lekin u umuman qatnashmasligi mumkin. Shartli operatordagi kabi variantli tanlash operatorlari uchun ixtiyoriy darajadagi joylanganlik mumkin, lekin zarur bo‘lmasa ko‘paytirish kerak emas.

PHP da case belgilari sifatidao literallar emas o‘zgaruvchilar ham kelishi mumkin. Lekin case belgilari sifatida PHP da massivlar va ob’ektlar kelolmaydi.

### Sikl operatorlari

Sikl operatorlari sikl tanasida operatorlarning ko‘p marta bajarilishini ta’minlaydi. PHP da 4 ta har xil sikl operatorlari mavjud:

oldingi shartli sikl: while(shart) { operatorlar; }

keyingi shartli sikl: do { operatorlar; } while(shart);

iteratsion sikl:

for(boshlang’ich qiymat; oxirgi qiymat; orttirma)  
{ operatorlar; }

iteratsion sikl foreach:

foreach (array as [\$key =>] \$value)  
{ operatorlar; }

Sodda while sikliga misol:

```
<?  
$var = 5;  
$i = 0;  
while(++$i <= $var)  
{  
    echo($i); echo('<br>');  
}  
?>
```

Sikldan chiqish uchun break operator qo‘llanadi. Bu operator uchragandasikl iteratsiyasi to‘xtatiladi. Quyidagi misol bajarilganda, o‘zgaruvchi \$var = 7 bo‘lishiga qaramasdan , brauzer oynasida 1 dan 5 gacha raqamlar paydo bo‘ladi.

```
<?  
$var = 7;  
$i = 0;  
while(++$i <= $var)  
{  
    echo($i);  
    echo('<br>');  
    if($i==3)break;  
}  
?>
```

Ba'zida joriy iteratsiyani to'xtatib, darxol keyingisiga o'tish kerak bo'ladi. Buning uchun continue operatori qo'llanadi:

```
<?
$var = 7;
$i = 0;
while(++$i <= $var)
{
    if($i==5)
    {
        continue;
    }
    echo($i);
    echo('<br>');
}
?>
```

Agar siz shartli operatorni echo operatoridan keyin qo'ysangiz, kod xato bo'ladi va 1 dan 20 gacha raqamlar chiqariladi, chunki ma'lum iteratsiyadasikldan chiqish sharti, shu iteratsiya bajarilgandan so'ng tekshiriladi.

Cheksiz sikl while operatori yordamida quyidagicha xosil qilinadi:

```
while(1)
{
    ...
}
```

Bu while(true) yozuvning o'zi.

Do...while operator keyingi shartlisikl operatori deyiladi. Ixtiyoriy xoldasiklga kirilgandasikl tanasi bajariladi( Ya'nisikl juda bo'lmasa bir marta bajariladi) so'ogra shart hisoblanadi va agar u 0 bo'lsa Yana sikl tanasi bajariladi. Quyidagi misolda nol ro'yxatga (++\$i <= \$var) shartga bog'lanmagan xoldda qo'shiladi:

```
<?
$var = 5;
$i = 0;
do
{
    echo($i); echo('<br>');
}
while(++$i <= $var)
?>
```

Sharti keyin kelgansikl agar qayta ishlashni tugatish belgisi kelgandan keyin kelganda to'xtatish zarur bo'lsa ishlatiladi.

Cheksiz sikl quyidagicha yoziladi:

```
do ; while(1);
```

For iteratsion sikl quyidagi formatga ega:

```
for (boshlang'ich_qiymat; oxirgi_qiymat; orttirma)
    { operatorlar; }
```

Bu erda boshlang'ich\_qiymat (sikl initsializatsiyasi) – vergul bilan ajratilgan ta'riflar va ifodalar ketma ketligidir. Initsializatsiyaga kirgan hamma ifodalarsiklga kirishda


bir marta hisoblanadi. Odatda shu erda sanovchilar boshlang‘ich qiymatlari vasikl parametrlari hisoblanadi. Ifoda -shart (oxirgi\_qiyomat) ma’nosи oldingi yoki oxirgi shartlisikllardagi kabi. Agar ifoda –shart bo‘lmasa uning qiymati har doim rost hisoblanadi. Ifoda orttirma har bir iteratsiya oxirida sikl tanasi bajarilgandan so‘ng hisoblanadi.

1-topshiriq: Berilgan o’zgaruvchini turini tekshiring.

Dreamweaver dastruni ishga tushiramiz va yangi PHP fayl oynasini ochamiz. Kodlar oynasiga quyidagi dastur kodlarini birma-bir kiritib alohida (...\\xampp\\htdocs\\misol\\papkasiga) misol.php nomi bilan saqlaymiz.

```
<?php  
$a= "15";  
$b=29;  
echo "a o'zgaruvchisining turi: ", gettype($a), "<br>";  
echo "b o'zgaruvchisining turi: ", gettype($b);  
?>
```

Web serverni ishchi xolatga o’tkazamiz va brauzer oynasini ochib unga [localhost/misollar/misol3.php](http://localhost/misollar/misol3.php) qatorini kiritib Enter tugmasini bosamiz. Quyidagi natijani ko’ramiz.




a o'zgaruvchisining turi: string  
b o'zgaruvchisining turi: integer

2-topshiriq: 1 dan 100 gacha bo’lgan toq sonlarni va ularning yig’indisini chop eting.  
Bajarish: Dreamweaver dastruni ishga tushiramiz va yangi PHP fayl oynasini ochamiz. Kodlar oynasiga quyidagi dastur kodlarini birma-bir kiritib alohida (...\\xampp\\htdocs\\misol\\papkasiga)saqlaymiz. Masalani hal etish uchun shartli operator - if va takrorlanuvchi operatorlar (for, while, do...while)dan biridan foydalanishimiz mumkin. Dastur matni quyidagicha bo’ladi.

for sikl operatoridan foydalanilganda:

```
<?php  
echo "1 dan 10 gacha toq sonlar:<br>";  
for ($i=1;$i<=10;$i+=2)  
{  
    echo "$i <br>";  
    $s+=$i;  
}  
echo "Ularning yig'indisi = ",$s;  
?>
```




The screenshot shows the Macromedia Dreamweaver 8 interface with a PHP file named 'misol1.php' open. The code uses a for loop to print odd numbers from 1 to 10 and calculate their sum.

```
<?php
echo "1 dan 10 gacha toq sonlar:<br>";
for ($i=1;$i<=10;$i+=2)
{
    echo "$i <br>" ;
    $s+=$i;
}
echo "Ularning yig'indisi = ",$s;
?>
```

while sikl operatoridan foydalanilganda:

```
<?php
echo "1 dan 10 gacha toq sonlar:<br>";
$i=1;
While ($i<=10)
{
    echo "$i <br>" ;
    $s+=$i;
    $i+=2;
}
echo "Ularning yig'indisi = ",$s;
?>
```




The screenshot shows the Macromedia Dreamweaver 8 interface with a PHP file named 'misol1.php\*' open. The code uses a do...while loop to print odd numbers from 1 to 10 and calculate their sum.

```
<?php
echo "1 dan 10 gacha toq sonlar:<br>";
$i=1;
While ($i<=10)
{
    echo "$i <br>" ;
    $s+=$i;
    $i+=2;
}
echo "Ularning yig'indisi = ",$s;
?>
```

do...while sikl operatoridan foydalanilganda:

```
<?php
echo "1 dan 10 gacha toq sonlar:<br>";
$i=1;
do
{
    echo "$i <br>" ;
    $s+=$i;
    $i+=2;
}
while ($i<=10);
```


```
echo "Ularning yig'indisi = ",$s;  
?>
```



The screenshot shows the Macromedia Dreamweaver 8 interface. The title bar says "Macromedia Dreamweaver 8 - [C:\xampp\htdocs\misol\misol1.php\*]". The menu bar includes File, Edit, View, Insert, Modify, Text, Commands, Site, Window, Help. The Insert menu is expanded, showing Common, Layout, Forms, Text, HTML, PHP, Application, Flash elements, Favorites. Below the menu is a toolbar with various icons. The main workspace shows the code for "misol1.php\*". The code is as follows:

```
<?php  
echo "1 dan 10 gacha toq sonlar:<br>";  
$i=1;  
do  
{  
    echo "$i <br>";  
    $s+= $i;  
    $i+=2;  
}  
while ($i<=10);  
echo "Ularning yig'indisi = ",$s;  
?>
```

Har uch holatda ham quyidagi natijaga erishamiz.



1 dan 10 gacha toq sonlar:

1  
3  
5  
7  
9

Ularning yig'indisi = 25

Amaliy ish uchun topshiriqlar:

- Variant bo'yicha berilgan topshiriqnini bajaring.
- Natijalarni tahlil qiling.
- Bajarilan ishlarni bo'yicha hisobot tayyorlang.

### 3-AMALIY ISH

Ishning mazmuni: PHPda massivlar, funksiyalar va obyektlar bilan ishlash.

Ishning maqsadi: PHPda funksiyalar, massivlar va ob'yektlardan foydalananib dasutlar tuzish bo'yicha amaliy malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

Kerakli jihozlar: Kompyuter, elektron qo'llanma va dasturiy jixozlar.

Amaliy ishni bajarish uchun zarur nazariy ma'lumotlar PHPda funksiyalar, massivlar va ob'yektlar haqida tushunchalarga ega bo'ishi. funksiyalar, massivlar va ob'yektlar yaratish hamda foydalanimishda ishlatiladigan buyruqlarini yozilish strukturasini bilishi.

Amaliy ishni bajarish uchun kerakli  
**amaliy ko'nikmalar:**

Nazariy ma'lumotlar.

Massivlar

Massivlar initsializatsiyasi

PHP da massivlarni initsializatsiya qilishning 2 usuli mavjud. Birinchisi massiv elementlariga qiymat berishdan iborat:

<?

```
$car[] = "damas";
$car[] = "nexia";
echo($car[1]); // chiqaradi "nexia"
```

?>

Massiv indeksini ochiq ko'rsatish mumkin:

<?php

```
$car[0] = "damas";
$car[1] = "nexia";
echo($car[1]); // chiqaradi "nexia"
```

?>

Agar massiv elementlarini e'lon qilishda oshkora indeksatsiyali va indeksatsiyasiz o'zgaruvchilar aralashib kelsa indeksi berilmagan elementga ishlatalgan indekslar ichida eng kattasidan keyin keluvchi ruxsat berilgan indeksni beradi. Masalan agar biz yaratgan massiv elementlar indekslari 10, 20 va 30 bo'lsa va indeks ko'rsatmasdan Yangi element yaratsak, uning indeksi avtomatik ravishda 31 bo'ladi:

<?php

```
$car[10] = "damas";
$car[20] = "nexia";
$car[30] = "captiva";
$car[] = "malibu";
echo($car[31]); // chiqaradi "malibu"
```

?>

Alternativ usul array() konstruktsiyasidan foydalanishdan iborat:

<?

```
$car = array("damas", "nexia");
echo($car[1]); // chiqaradi "nexia"
```

?>

Indekslarni oshkora ko'rsatish uchun => operator qo'llanadi:

<?php

```
$car = array("damas", 5 => "nexia", "captiva", "malibu");
echo($car[0]); echo("<br>"); // chiqaradi "damas"
echo($car[5]); echo("<br>"); // chiqaradi "nexia"
echo($car[6]); echo("<br>"); // chiqaradi "captiva"
echo($car[7]); // chiqaradi "malibu"
```

?>

Massiv indekslari satrlar ham bo'lishi mumkin:

<?php

```
$car = array("gm" => "captiva", "dw" => "tiko");
```

```
echo($car["gm"]); echo("<br>"); // chiqaradi "captiva"
echo($car["dw"]); // chiqaradi "tiko"
```

?>

Massivlarni ko'rib chiqish uchun foreach sikli

PHPda massiv elementlarini ko'rib chiqish uchun foreach operatoridan foydalanish mumkin. Bu operator sintaksisi:

```
foreach (array as [$key =>] $value)
```

{

operatorlar;

}

Bu sikl ma'nosi sodda: har bir element ko'rildi uning indeksi \$key o'zgaruvchiga, qiymati bo'lsa \$value o'zgaruvchiga joylashtiriladi. Bu ikki o'zgaruvchilarning nomlari ixtiyoriyidir.

Misol:

```
<?php
```

```
$car = array("damas", "nexia", "captiva", "malibu");
foreach($car as $index => $val)
{
    echo("$index -> $val <br>");
}
```

?>

Sintaksidan ko'rinish turibdiki, \$key o'zgaruvchidan foydalanish shart emas, shuning uchun tashlab yuborilishi mumkin:

```
<?php
```

```
echo("kerakli mashinalar: <br> <ul>"
);
$car = array("damas", "nexia", "captiva", "malibu");
foreach($car as $val)
{
    echo("<li>$val</li>\n");
}
echo("</ul>");
```

?>

Ko'p o'lchovli massivlar

Ko'p o'lchovli massivlarni ko'rib chiqish uchun ichki joylashgan array() konstruktsiyasidan foydalaniladi. Ko'p o'lchovli massivlarni o'qib chiqish joylangan sikllar yordamida amalgam oshiriladi. Quyidagi scriptda ko'p o'lchovli massiv yaratish va ko'rib chiqish ko'rsatilgan.

Misol:

```
<?php
```

```
$ship = array(
    "Passajir kema" => array("Yacht", "Liner", "Ferry"),
    "Xarbiy kema" => array("Battle-wagon", "Submarine", "Cruiser"),
    "Yuk kemasi" => array("Tank vessel", "Dry-cargo ship", "Container cargo ship")
);
foreach($ship as $key => $type)
```

```

{
    echo("<h2>$key</h2>|n"."<ul>|n");
    foreach($type as $ship)
    {
        echo("\t<li>$ship</li>|n");
    }
}
echo("</ul>|n");
?>

```

Bu scriptbajarilish natijasi:

Passajir kema

Yacht

Liner

Ferry

Xarbiy kema

Battle-wagon

Submarine

Cruiser

Yuk kemasi

Tank vessel

Dry-cargo ship

Container cargo ship

Endi PHP da mavjud massivlar bilan ishslash funktsiyalarini ko'rib chiqamiz.

Funktсиya count()

Sintaksis: int count(mixed var)

Bu funktсиya argument sifatida massivni qabul qilib, undagi elementlar sonini qaytaradi.

Funktсиya in\_array()

Sintaksis: boolean in\_array(mixed needle, array haystack [, bool strict])

Bu funktсиya haystack massivda needle qiymatni qidiradi va agar u mavjud bo'lsa true qaytaradi, aks xolda false qaytaradi.

Funktсиya reset()

Sintaksis: mixed reset(array array)

Funktсиya reset()massiv ko'rsatkichini birinchi elementga o'rnatadi va massiv birinchi elementi qiymatini qaytaradi.

Kichkina izox. PHP da har bir massiv jorielemenga ko'rsatkichna ega. Quyidagi foreach kabi konstruktsiyalar Bilan ishslashda ko'rsatkich haqida o'ylash kerak emas, chunki foreach uni massiv boshiga o'rnatadi. Lekin boshqa massivlar funktсиyalarini masalan prev(), next(), massiv ko'rsatkichlarini suradi, bu esa array\_walk(), kabi qayta ishslashni ko'rsatkichni turgan joyidan boshlovchi funktсиyalar uchun katta ahamiyatga ega.

Massivlarni tartiblash funktсиyalarini

sort()

Massivni o'sish bo'yicha tartiblash funktсиyasi.

Sintaksis: void sort(array array [, int sort\_flags])

Funktsiya array massivini o'sish bo'yicha tartiblaydi. Majburiy bo'lman element sort\_flags elementlar qanday tartiblanishi kerakligini ko'rsatadi(tartiblash bayroqlarini belgilaydi). Argumentning mumkin bo'lgan qiymatlari quyidagilar:  
SORT\_REGULAR – elementlar normal soldishtiradi (elementlarni "boricha" solishtiradi)

SORT\_NUMERIC – elementlarni sonlar sifatida solishtiradi

SORT\_STRING - elementlarni satrlar sifatida almashtiradi

Umuman olganda bu funktsiya ro'yxatlarni tartiblash uchun mo'ljallangan. Ro'yxat deganda kalitlari nuldan boshlangan va bo'shlirkarga ega bo'lman massiv tushuniladi. Funktsiya sort() ixtiyoriy massivni ro'yxat deb qaraydi.

Misol:

```
<?php
$arr = array("2", "1", "4", "3", "5");
sort($arr);
for($i=0; $i < count($arr); $i++)
{
    echo ("$i:$arr[$i] ");
}
// chiqaradi "0:1 1:2 2:3 3:4 4:5"
?>
```

Natija:

0:1 1:2 2:3 3:4 4:5

Agar siz satrlarni tartiblayotgan bo'lsangiz, misol uchun massiv quyidagi ko'rinishga ega bo'lsa

```
array("one", "two", "abs", "three", "uic", "for", "five");
bu ajoyib funktsiya quyidagi natijani qaytaradi:
```

Natija:

0:abs 1:five 2:for 3:one 4:three 5:two 6:uic

Ya'ni satrlarni u alfa-beta tartibda, soddarroq aytganda birinchi harflari alfavitda kelishi bo'yicha tartiblaydi.

rsort()

Massivlarni kamayish bo'yicha tartiblash.

Sintaksis: void rsort(array arr [, int sort\_flags])

Shunga o'xshash sort() funktsiyasi faqat kamayish bo'yicha tartiblaydi. Oldingi sort() funktsiyasi uchun ko'rilgan scriptni olamiz, faqat sort(\$arr) o'rniga rsort(\$arr) qo'yamiz.

Natija:

0:5 1:4 2:3 3:2 4:1

asort()

Assotsiativ massivni o'sish bo'yicha tartiblash.

Sintaksis: void asort(array arr [, int sort\_flags])

Funktsiya asort() berilgan arr massivni shunday tartiblaydiki uning qiymatlari alfavit tartibida (agar satr bo'lsa) yoki o'sish tartibda (sonlar uchunl) tartibda joylashadi. Bu funktsiyaning sort() funktsiyasidan muxim farqi shundaki asort() funktsiyasi qo'llanilganda kalitlar va ularga mos qiymatlardan orasida bog'liklik saqlanadi, sort() funktsiyasida bo'lsa bu bog'liqlik uziladi.

Misol:

```
<?php
$arr = array("a" =>"one","b" => "two","c" => "three","d" => "four");
asort($arr);
foreach($arr as $key => $val)
{
    echo (" $key => $val ");
}
?>
```

Natija:

d => four a => one c => three b => two

Ko‘rinib turibdiki "kalit-qiyamat" bog‘lanishlari saqlanib qolgan.

Ko‘zda tutilgan bo‘yicha asort() funktsiyasi massivni alfavit bo‘yicha tartiblaydi. Tartiblashbayroqlari sort\_flags qiymatlari sort() funktsiyasi ta’rifida keltirilgan. arsort()

Assotsiativ massivlarni kamayish bo‘yicha tartiblash.

Sintaksis: void arsort(array arr [, int sort\_flags])

Bu funktsiya asort() funktsiyasiga o‘xshash, faqat u masivni o‘sish bo‘yicha emas kamayish bo‘yicha tartiblaydi.

ksort()

Massivlarni kalit o‘sishi bo‘yicha tartiblash.

Sintaksis: int ksort(array arr [, int sort\_flags])

Bu funktsiyada tartiblash qiymatlar bo‘yicha emas, balkim kalitlar bo‘yicha o‘sish tartibida amalga oshiriladi.

```
<?php
```

```
$arr = array("a" =>"one","b" => "two","c" => "three","d" => "four");
ksort($arr);
foreach($arr as $key => $val)
{
    echo (" $key => $val ");
}
```

?>

Natija:

a => one b => two c => three d => four

krsort()

Indekslar kamayishi bo‘yicha massivlarni tartiblash.

Sintaksis: int krsort(array arr [, int sort\_flags])

Xuddi ksort() funktsiyaga o‘xshash, faqat massivni kalitlar bo‘yicha teskari tartibda (kamayish bo‘yicha) tartiblaydi.

array\_reverse()

Massiv elementlarini teskari joylashtirish.

Sintaksis: array array\_reverse(array arr [, bool preserve\_keys])

Funktsiya array\_reverse() elementlari parametrda berilgan arr massivi elementlariga nisbatan teskari joylashtirilgan massivni qaytaradi. Kalitlar va qiymatlар orasidagi bog‘lanish saqlanib qoladi. Agar majburiy bo‘lmagan parametr preserve\_keys ga true berilsa, kalitlar ham teskari tartibda joylashadi.

Misol:

```
<?php
$arr = array ("php", 4.0, array ("green", "red"));
